

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqi

UDK: 8-1/9+8.04+003

Xasanova Xikmatoy Axrorjon qizi

***Mavzu: Maktub genezisi, tadrijiylik badiiy
asar kompozitsiyasidagi o‘rni***

Ixtisoslik: A 120101 – Adabiyotshunoslik

Magistr ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi G. Muhammadjonova

Farg‘ona – 2020

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB MAKTUB VA UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O‘RNI.....	8
1.1 Maktub va ularning genezisiga masalasi.....	9
1.2 Xat, noma, maktub ularining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi.....	20
II BOB BADIY ADABIYOTDAGI MAKTUBLARNING TASNIFI VA TADRIJI.....	29
2.1. Maktublarning mazmuniy tasnifi.....	29
2.2. Badiiy asarlar kompozitsiyasida uchraydigan maktublarning tadrijiy rivoji.....	50
III BOB BADIY ASARLARDAGI MAKTUBLAR POETIKASI. 3.1. Badiiy asar tarkibida uchraydigan maktublarning asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni.....	58
3.2 Maktublar kompozitsiyasi va badiiy-estetik vazifasi.....	72
XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	83

KIRISH

Ishning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda barcha sohalar qatorida adabiyotga ham alohida e'tibor berilmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida respublikamizda qabul qilingan o'ziga xos islohot orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yamiz. Mazkur masalani samarali hal etish birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlodning axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng barkamol insonlar yurtimiz taqdirini hal qiladilar. Shuning uchun ham kelajakka munosib bo'lgan ma'naviy jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bunday yoshlarni tarbiyalash uchun esa badiiy asarlar bizga yordamga keladi. "Ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi, – deydi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat".¹

Adabiyot - so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Darhaqiqat, adabiyotshunoslarimiz e'tibori alohida olingan shoir

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000. –B. 25.

va yozuvchilar individual uslubi, badiiy matn va u bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga qaratilayotganligi seziladi.

Ma’lumki, hayotning, jamiyatning turli jabhalarida ro‘y bergan o‘zgarish va evrilishlar adabiyot va san’atda ham o‘z ifodasini topadi. Bu narsa yangi o‘zbek nasrida yaratilgan asrlarda ham yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham nisbatan tez yangilanadigan, shaklan va mazmunan zamon bilan hamohang qadam tashlaydigan tashlaydigan soha sanaladi. Yangi o‘zbek adabiyoti bugun o‘z nigohini insonning botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg‘ularini ochib berish asnosida insonni o‘zi bilan tanishtirdi. Buning asosiy sababi inson ruhining tabiatini teran va to‘laroq ochish, shuningdek, ta’sirliroq ifodalash bilan belgilandi.

Chunki, bunga bugunda har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezilmoqda. Chunki, “adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytgandek, adabiyot yashasa, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unitishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”². Demak, nasrimizdagi o‘ziga xos yangiliklarni tadqiq etish orqali xalq ma’naviyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin.

Yangi o‘zbek adabiyoti nasriy asarlar kompozitsiyasida uchraydigan maktublarning badiiy-estetik funksiyasi yuzasidan o‘zbek adabiyotida amalga oshirilgan ishlar yetarli emas. Badiiy asarlar kompozitsiyasida uchraydigan maktublarning mavzu ko‘lami, maktub turlari, genezisi masalasi adabiyotshunoslikda monografik o‘rganilmagan, mavzuning bu jihatlarini o‘rganish ***dolzarblik kasb etadi.***

² Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятнинг ривожлантириш – халқимиз маънавий оламида юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан. “Халқ сўзи”, 2017 йил, 4 август.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Adabiyotshunoslikda maktublar va ularning tarixiy ildizlari, qadimgi dunyo tarixidan tortib bugungi kungacha e'tibor va tadqiq markazida bo'lgan.

Olim A. O'rinboyev XIV – XV asrlardagi adabiy muhitda uchraydigan maktublarni o'rgangan va tahlil qilgan. I.G'ofurov, H.Umurov, D.Quronov, Sh.Ahmedova, M.Qo'chqorova, R.Vohidov, M.Mahmudov, R.Ibrohimovalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bu mavzu o'zining dolzarblik ahamiyatini turk adabiyotida “Turk edebiyatinda mektup” nomli dissertatsiyada Omer Chakir, “Turk edebiyatinda o'zel mektuplar bibliyografiyasi” Emine EROĞLU tadqiqotlarida o'rganilganligi mavzuning tadqiqot talab, dolzarb ekanligini asoslaydi. Ushbu adabiyotshunoslarning ishlarida maktublarning tarixiy ildizlari, genezisiga oid ma'lumotlar berilgan.

Maktublar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunoslar mazkur asarga u yoki bu darajada munosabat bildirgan bo'lsalar-da, uning poetik xususiyatlari, badiiy jihatlariga alohida urg'u bermaganlar. Shu kungacha maktublar genezisi, asarlar tarkibida uchraydigan maktublarning qahramonlar ruhiyatini yoritishdagi o'rni poetik xususiyatlari alohida tadqiq etilmagan. Maktublar ishtirok etgan asarlarni tadqiq etish jarayonida uning badiiy-estetik funksiyasi, maktublar kompozitsiyasi o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, maktublarning badiiy asarlar kompozitsiyasiga olib kirilishida asarda tugun, detal kabi vazifalarning bajarishi, bu orqali inson ruhiyatini tasvirlash bilan birgalikda u yashab turgan muhitni his qilishga o'rgatishi, bundan ko'zda tutilgan maqsad masalalarini ilmiy tekshirish ham yangicha ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga turtki beradi. Shu tarzda maktub ishtirok etgan asarlarga adabiy-badiiy manba sifatida yondashishga asos yaratiladi. Noma bo'yicha tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunoslar mazkur tipdagi asarlarga u yoki bu darajada munosabat bildirgan bo'lsalar-da, badiiy jihatlariga, ularniga genezisiga, tasniflash masalasiga alohida urg'u bermaganlar.

Yangi o'zbek adabiyoti nasriy asarlaridagi maktublar tahliliga, ularning badiiy-estetik funksiyasiga, asarga olib kirilish sabablari kabi bir qancha dolzarb masalalarga e'tibor qaratilmagan va yoritilmagan.

Biz ushbu ishimiz orqali, aynan, shu masalalarga to'xtalib o'tdik va tahlil qilishga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Maktublar genezisiga oid ma'lumotlarni tizimlashtirish, jahon va yangi o'zbek adabiyoti nasriy asarlarida uchraydigan maktublarning badiiy-estetik funksiyasi ochib berish.

Yuqoridagi maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- maktub, noma, xat kabi tushunchalarning mazmun mundarijasini oydinlashtirish;
- maktublarni adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini o'rganilish;
- maktublar genezisiga oid ma'lumotlarni tadqiq etish;
- badiiy adabiyotdagi maktublarni tasnifiy o'rganish;
- maktublarni asar kompozitsiyasida tutgan o'rnini belgilash;
- maktublar poetikasi bo'yicha xulosalar berish.

Ishning obyekti va predmeti sifatida jahon adabiyot va yangi o'zbek adabiyoti nasriy asarlarida uchraydigan maktublarga murojaat etgan asarlar tanlandi. Bunda asosiy e'tiborni maktub va uning uzoq yillik taraqqiyotiga qaratganimiz sababli, asosan, ularning genezisi va badiiy-estetik funksiyasi masalalari haqida fikr bildirdik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va ahamiyati maktub va uning genezisi, badiiy asarlar kompozitsiyasida uchraydigan maktublarning poetikasi asar kompozitsiyasida tutgan o'rnini monografik tadqiq etildi. Maktublar mazmun jihatdan tasnifiy o'rganildi.

Adabiyotshunoslikda maktublar yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot orqali ularning poetikasi yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni dissertant tomonidan 1 ta Respublika OAK e'tirofidagi ilmiy jurnalda, 5ta ilmiy maqola va tezislarda o'z ifodasini topgan.

Ishning tuzilishi va hajmi: ish sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

MAKTUB VA UNING BADIY ADABIYOTDAGI O‘RNI

Badiiy adabiyotning bosh maqsadi inson ruhiyati tarbiyasi, uning ichki kechinmalari ifodasini yorqinlashtirish ekan, ushbu ichki kechinmalarni, orzu umidlarni, dard-u hasratlarni adabiyotshunoslikka namoyon qila oladigan mo‘jiza bu badiiy asardir. Badiiy asarda insonning ko‘ngil kechinmalari, dil izhorlari, inson qalbidagi tuyg‘ular tarannumi, ruhiy holatini ifodalovchi maktub esa alohida ahamiyat kasb etadi.

Bejizga maktub ko‘ngil oynasi, qalb qo‘riqchisi deb aytilmaydi. Chunki, qog‘oz va qalamni o‘rtoqlashtirganda unga faqat rost narsani yuzaga chiqaruvchi ko‘ngilni birlashtirganda, uch birlik qonuni asosida – qog‘oz, qalam, qalb birlashib, har uchchalasi uchun ham qadrli bo‘ladigan maktub yaraladi. Shuning uchun haqiqiy maktublarda yolg‘on bo‘lmaydi, faqat ko‘ngil kechinmalari, qalb dardlari namoyon bo‘ladi.

Biz o‘z ishimiz orqali bugungi kunda nafaqat adabiyotimizda balki, oddiy hayotda ham texnika taraqqiyoti natijasida ahamiyati susayayotgan, lekin insoniyatning ruhiy ehtiyoji hisoblangan maktublar haqida fikr yuritmoqchimiz. Maktub yozish insonning ham ma‘naviy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi, ham madaniyat darajasini o‘zida namoyon etadi.

Necha ming yillik ijtimoiy hayot tabiat bilan kurash va uni tushunishga intilishi insonning o‘zi uchun oddiy hodisa bo‘lib qolavergan. Misol uchun maktub (xat) birovga o‘z fikrini tushuntirish uchun kishi tomonidan tuziladigan gap (jumla)ning bir nech so‘zlardan iborat ekanini payqashga yetguncha inson bir necha ming yillarni boshdan kechirdi. Inson bu haqiqatni tushungandan keyin esa shu jumlaning unda ifoda etilgan fikrini boshqalar uchun hayotiy tajriba tarzida saqlab qolish niyatida o‘sha so‘zlarning har biri uchun surat topadilar va shu suratlarni qator chizib qo‘yish bilan o‘z fikrlarini xatga tushiradilar. Natijada “suratli xat” tug‘iladi.

Keyinroq inson soʻzlarning har biri muttasil boshqa soʻzlarda takror boʻladigan ayrim tovushlardan iborat ekanligini tushunadi va endi ayrim soʻzlarnigina emas ayrim tovushlarni ifoda etadigan shaklni izlaydi va topadi: u (insoniyat) harflarni yaratadi. Shunday qilib harflar jamligiga asoslangan xat – “grafik xat” paydo boʻladi. Bu yana yuz ming yillar davom etgan azobli izlanishlar bilan toʻla tarixiy prosessdir. Ammo koʻp oʻtmay xat kishilar ongida oddiy hodisa boʻlib qoladi. Maksim Gorkiy taʼbiri bilan aytganda “xat insoniyatning tengsiz moʻjizasi, ichki sir-asrorlari ifodachisi” sanaladi³.

Insoniyat xatni yaratish bilan badiiy soʻz ijodining ravnaqi uchun keng yoʻl ochdi. Badiiy adabiyot ham insoniyat yaratgan moʻjizalardan biridir. Vaholanki, uning moʻjiza ekaniga koʻpchilik eʼtibor bermaydi. Badiiy asarning saviyasini, qadr-qimmatini, darajasini hamma ham baholay olmaydi, chunki, u adib tomonidan yaratilgan moʻjiza. Shunday boʻlsada, badiiy asar kompozitsiyasidagi maktublar uning badiiylik qimmatini oshirishga, hayotiylikni taminlashga, ichki kechinmalarning haqqoniyligini koʻrsatadiga xizmat qiladi.

1.1 Maktub va ularning genezisiga masalasi

Amerikadagi Qadimgi Asteklar davlatining miloddan avvalgi IV – II ming yilliklarga oid maʼlumotlarida keltirilishicha, qadimgi davrlarda maxfiy sirlarni uzatishda, kohinlar oʻrtasida maʼlumot almashishda foydalanilgan bir xat turi ham fanga maʼlum. Bu kipu – tugunli xat. Uning siri hammaga ham maʼlum boʻlmagan, faqat bosh kohinlarga bu orqali gaplashishni bilganlar. Demak, bundan koʻrinadiki, xatlardan foydalanishga amaliy ehtiyoj – sirlarni yashirish, maʼlumotlarni mavhum tarzda yetkazish, maʼlumot almashish uchun zarur boʻlgan.

³ Xudoyberdiyev. E Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 2003. 53-bet.

Maktub janridan ma'lum tarixiy va ijtimoiy-siyosiy voqealar jarayonida ham istifoda etilgan. Miloddan oldingi III asrda Markaziy Osiyoda hukmdorlik qilgan Botir tangriqutning Xitoy malikasiga yozgan maktublari va malikaning Botir tangriqutga yozga javoblari ma'lum.

Maktubning ilk ko'rinishlari O'rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo'lmasdan ilgari buyumlar vositasida ham ifodalangan. Bunga misol sifatida skiflar shohi Iskandarning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlar — kamon o'qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o'ziga xos «maktub»ini eslash kifoya. Bu singari maktublarning tarixi juda qadimiydir.

Maktubning ildizlarini yana xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan dostonlarda ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek folklorining nodir namunalaridan biri bo'lgan “Alpomish” – o'zbek xalqining bir etnik xalq bo'lib shakllanish davrini o'zida mujassam eta olgan qahramonlik dostonlari qatoriga kiradi. Asar garchand, xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lsa-da o'ziga xos kompozitsiyaga, syujet chiziqlariga, tasviriy ifoda-yu detallarga boy asar syujetidagi voqeliklarni bog'lash va voqealarni yanada shiddatli shakllanishi uchun asarda maktubdan ham foydalanilgan. Doston xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lganligi sababli unda uchraydigan maktublarga badiiy asarlar tarkibida uchraydigan maktublarning genezisi sifatida qarash mumkin. Chunki dastlab og'zaki keyin yozma adabiyot shakllangan. Xususan, dostonning Fozil Yo'ldosh baxshi variantida maktub atamasi o'rniga “arza” atamasi qo'llangan⁴. Asar kompozitsiyasidagi dastlabki arza Boysarining Qalmoqshoh yurtiga kelganida to'qson to'qay qo'ylaridan ba'zilari dehqonlarning ekinini o't deb o'ylab o'tlagani uchun dehqonlar arza beradi, bu arza bilan jallodlarning Boysari qavmi oldiga kelishi va vaziyatni tushuntirib jallodlardan xonga Boysari tilidan arza yuboriladi. Natijada esa asar syujetida yangi bir syujet linyasi paydo bo'lishiga zamin hozirlaydigan detal vazifasini bajaradi. Bu arzaga Qalmoqshohning javobi esa tasvir makoni va syujetining

⁴ Alpomish. Toshkent. 1987. 57-bet

miqdorini oshiradi. Doston tarkibida uchraydigan keying arza esa voqealar rivojida Alpomish qahramonligining amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu arzaga ko'ra qalmoqlar yurtida qolgan Barchin o'zining nochor ahvolini bayon etib, Hakimbekdan yordam so'rab, unga maktub yozadi va bu maktubini o'nta navkar orqali yuboradi (nimaga o'nta? Dah nomami?). «Alpomish» dostonida maktubning (ayrim tadqiqotlarda nomaning deyiladi. Noma alohida bir janr. Uning janr talablari bor, dostondagi maktub bu talablarga mos kelmaydi, lekin poetikasi yuqori – shuning uchun maktub deganimiz maqul) ilk namunasi bor. Chunonchi, Boybo'ring Barchin choparlariga po'pisasida eldoshlar, ini, bo'lg'usi kelin taqdiriga hukmdor og'aning mutlaqo beparvoligi ko'zga tashlanadi: «Bundan ketgancha, Qo'ng'iroq muzofotidan o'tgancha, Qalmoq viloyatiga yetgancha, yo bir o'tinchiga, yo bir podachiga, yo cho'lda yurgan cho'ponga «Biz Barchinning chopari bo'lar edik» deb og'zingdan chiqarsang, odam buyuraman, keyiningdan quvib yetadi, boshingga qamchi chotadi, badaningni bo'zday qilib yirtadi, opkelib dorga tortadi...» Ifoda qanday go'zal! Agar taqiq buzilsa, choparlar boshiga tushishi mumkin bo'lgan og'ir kunni imkon qadar ta'sirli, ravshan gavdalantish uchun dostonda badiiy so'z qudratidan g'oyat oqilona foydalanilgan. Dostonda choparlarning Boybo'ri taqiqiga munosabati ham chin, tabiiy tasvirlangan: «Xo'p gapni gapirdi, xohi bor, xohi borma, bizdan bir xizmatda, bizning borgan-bormaganing bilan nima ishimiz bor, ketsa, sening kelining ketadi, qalmoq olsa, sening iningning qizini oladi, bizdan ketadigani bir yo'l xizmatimizda...» Bu so'zlarni chin o'zbekona munosabat tarzining samimiy ifodasi deyish mumkin. Choparlar o'zlarining bor-yo'g'i xabarchi ekanliklarini, Boybo'riga maslahat berib, uni insofga chaqirishga haqlari yo'qligini yaxshi bilishi asarda go'zal aks ettirilgan. Asarda odamlilik sha'niga, nomus, burch tuyg'ulariga beparvo odamdan ko'ra bezovta jonivor afzalroq ekanligi juda go'zal tasvir etilgan. Chunonchi, enchi tarlon biyaning yarg'oq quluniga doir tasvir bu jihatdan kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Avvalo, tarlon juda kam uchraydigan ot turi. Bu xil otning o'zgachaligi — tarlonligida! Shu biyadan tug'ilgan qulunning holati dostonida juda ta'sirli berilgan:

«Choparlar kelib ketgandan keyin tabladagi ot sag`risi toshib, yoli qulog`idan oshib, yulduzni ko`zlab, taraqqos boylab o`ynay berdi». Bu nazarkarda qulun ham barcha jonivorlar singari tuyg`u bilan ish ko`radi, aql bilan emas, shu bois o`zi xizmat qilishi lozim va mumkin bo`lgan vaqt kelganini sezadi! O`z tarixiy missiyasini bajaradigan fursat yaqinlaganini tuyadi. Shu bois bezovtalanadi. Ajdodlarimiz jonivorlarga bizlarga qaraganda yuzlarcha marta yaqinroq bo`lganlar. Ular otning holatini anglaganlar, Boybo`rining otga xavotirli munosabati, uni «yomonlagur» deb yanishi bejiz emas. Otni alohida otxonadan, Alpomishning ko`zi tushishi mumkin bo`lgan joydan chiqarib, Qultoy boqib yurgan minglab yilqilar ichiga qo`shib qo`yishida ham uning tarixiy vazifasini ortga surish harakati bor. Boychibor Alpomishdan oldinroq zimmasidagi ulkan vazifani bajarish vaqti yetganini sezdi. Uning nazarkardaligi ham aynan shunda edi. Ajdodlarning badiiy tafakkuriga tan berib aytish kerak-ki, folklor asarlarida hech qachon qahramon tabiatiga to`g`ri kelmaydigan ishlar ularga tiqishtirilmaydi. Ko`pchilik olimlar Alpomishni oshiq, ishq yo`lida qaxramonliklar ko`rsatgan kishi sifatida taqdim etmoqchi bo`lishadi. Holbuki, doston matniga sinchiklab qaralsa, tamomila buning aksini ko`rish mumkin, Alpomishning Barchin so`roviga, choparlar orqali yuborgan xatiga dastlabki munosabati: *«Oltoychalik yo`lda bo`lsa, qalmoqning elida bo`lsa, zo`r yovning qo`lida bo`lsa, bir xotin olamiz deb sandirab o`lamizmi?»*—deb xatni tizzasining ostiga bosib o`tirdi tarzida tasvirlangan. Qahramonning bu munosabatini qanday izohlash mumkin? Hakimbekning uzoqdagi qallig`i iltijosiga, ogohlantirishiga bu qadar sovuqqonlik bilan munosabatda bo`lishi sababi qayerda? Alpomish bilan Barchin bir-biriga o`tli muhabbat qo`ygan yoshlar emas. Agar shunday bo`lsa, Layli-Majnun singari ishqiy sahnalar, muhabbat mojarolari, eng bo`lmaganda, Farhod singari tasvirlangan bo`lardi. Alpomishning beparvoligi tayinsiz, sababsiz, emas, U—ulkan vujud, beadam kuch, shunga yarasha, chegarasiz sabr egasi. Alpomishning muhabbati Allohga, so`nggina bu dunyodagi yaratiqqlarga. Shu bois u hadeb yonib ketavermaydi, ko`tarilavermaydi. Barchinga ham sevikli yor, go`zal qiz,

o`rtanayotgan sohibjamol, iztirob chekayotgan asira deb emas, shunchaki bo`ljak xotin deb qaraydi, xolos. Shu sababdan dastlab qimirlagisi ham kelmaydi. Unga aynan qimirlash, faoliyatga kirishish maloldek tuyuladi. Biroq Alpomish qimirlamay bir yerga yotib olishi ilohiy kuch to`plashi, uzoq yo`l mashaqqatlari va raqiblar bilan bellashuvlari oldidan yerdan ilohiy kuch olish hodisasi sifatida talqin etiladi. Bundan xabar topgan Qaldirg`och singlisi unga “narmoda” dashnomini berib unga maktub yuboradi natijada Alp yo`lga otlanadi. Biroq, Qultoyning do`q-po`pisasidan keyin u yana fikridan qaytadi. Faqat, singlisining maslahat va yo`l yo`riqlaridan keyingina u safarga otlanadi. Epos qonuniyatidan bexabar odam bu parchani o`qib, Alpomishga turli “yorliqlar”, yopishtirib, uni faoliyatsizlikda ayblashi turgan gap. Eposda an`anaviy statik holatda keluvchi bunday parchalardagi yuzaki “qatlam” shunga asos beradi. Asardagi so`ngi maktubni Boysun Qo`ng`irotga kelishidan oldin Alpomishning Boybo`riga yuborgan maktubi bo`lib, unda o`zining yo`lga otlanganligi, ozi bilan Barchinni va Boysari inisining qavmini ham olib ketayotganligi mazmun ko`rinishda tasvirlangan.

Antik Rim madaniyatining yirik namoyandasi Mark Tulliy Sitseron (mil.av.106-43 yy.) notiqlik san'ati rivojiga ham nazariyotchi, ham amaliyotchi sifatida ulkan hissa qo'shgan. U o'zining ilmiy izlanishlarida lotin tili ifoda vositalarini muayyan tizimga solib tavsiflagan bo'lsa, nutqlari orqali uning imkoniyatlarini amalda namoyish etdi. Shu bois ham uning izlanishlari nafaqat notiqlik, balki nasr va tarixnavislik (bu ham, yuqorida ko'rganimizdek, adabiyot hisoblangan) uchun ham katta ahamiyatga ega edi. To'g'ri, Sitseron ham adabiyot - poeziyaga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib borgan emas. Lekin, birinchidan, antik davr uchun notiqlik adabiyotning bir ko'rinishi edi, ikkinchidan, Sitseronning nutqlari, maktublari va risolalarida o'rni bilan poeziya haqida mulohazalar bayon qilingan. Sitseronning poeziya haqidagi fikr-mulohazalari maktublarida ham aks etgan. Masalan, Attikka yozgan maktubida u mazmunning shakldan ustun turishini ta'kidlab, she'rning ohangdorligi, musiqiyiligini mazmundan ustun qo'yuvchilarni

tanqid qiladi. Ayni paytda, u badiiy asarni baholash, qimmatini belgilashda til xususiyatlarini birinchi o'ringa qo'yadi.⁵

Antik Rimning yana bir mashhur shoiri - Kvint Goratsiy Flakkning (mil.av. 65-8 yy) «Poeziya ilmi» (Pizonlarga maktub) nomli asari she'riy yo'lda yozilgan risola, aniqrog'i, qo'llanma bo'lib, adabiy doiralarga yaqin bo'lgan zodagonlar - Pizonlar xonadoniga yo'llangan maktub shaklida yozilgan. Goratsiy ushbu maktubida Pizon va uning ikki o'g'liga poeziya oldiga qo'yiladigan talablarni bir-bir tushuntirib boradi va shu asno o'z davrining adabiy nazariy qarashlarini muxtasar bayon qiladi.⁶ Goratsiyning “Pizonlarga maktub” asari haqida Hamidulla Boltaboyev shunday deydi: - Goratsiy maktub shaklida yozgan adabiyot nazaryasi – “Pizonlarga maktub”⁷ida o'z qarashlarini ifodalagan. Shuningdek o'zidan avval ijod qilgan xajvchi shoir Lutsiliyni tanqid qilgan. Demak, tarixda ham adabiy tanqidiy qarashlarni ifodalashda maktubdan foydalanilgan.

Qadimgi Rim axloqshunosi Lutsiy Anney Seneka (miloddan avvalgi 5-milodiy 65yillar)ning adabiy-estetik, falsafiy qarashlari uning “Lutsiliyga axloqiy maktublar” deb atalgan turkumidagi 124 maktubda yorqin ifodasini topgan. Bu maktublarda u Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, Zenon, Epikurning falsafiy va estetik qarashlariga munosabat bildirgan⁸. Bu maktublarda ijtimoiy hayotning turli mavzulariga bag'ishlaydi va bu mavzularda asosli fikrlar yuritadi. Bundan ko'rinib turibdiki, maktublar masalasiga Qadimgi Rimda alohida e'tibor berila boshlangan.

Faylasuf va yozuvchi Mixail Psell (1018-1079) antik merosni yuksak qadrlagan, uning o'z zamonida juda katta ahamiyatga ega ekanligini chuqur idrok qilgan. Konstantinopol oliy maktabining falsafa professori sifatida u antik faylasuflarning merosini juda yaxshi bilgan-ki, bu narsa uning asarlarida yaqqol seziladi. Antik mutafakkirlar singari Psell ham inson aqliga hurmat bilan qaragan.

⁵ D. Quronov, B. Rahmonov. G'arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. Toshkent: “Fan ” 2008. 23-bet

⁶ D. Quronov, B. Rahmonov. G'arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. Toshkent: “Fan ” 2008. 25-bet

⁷ Болтабоев Х, Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I жилд. Т.: “Mumtoz so'z” 2013. 201-bet

⁸ Болтабоев Х, Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I жилд. Т.: “Mumtoz so'z” 2013. 213-bet

Unga ko'ra, aql bilan idrok qilish qiyin bo'lgani, aqlning o'zi-yu Xudo, boshqa har qanday narsa idrok etiladi. M.Psellning falsafa, ilohiyot masalalariga bag'ishlangan asarlarida adabiyot va san'atga doir qimmatli fikrlar bildirilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, uning turli kishilarga yo'llagan maktublari ahamiyatlidir. Masalan, xatlaridan birini u «Sening iltimosingni bajarib, ushbu maktubda ritorik g'oyalar haqidagi mo'jaz darslikchani yuboryapman» (shunga ko'ra, maktub hozirda «Ritorik g'oyalar sharhi» nomi ostida beriladi) degan so'zlar bilan boshlaydi. Maktubda ritorika haqida, nutq turlari va har birining o'ziga xosligi, irod qilish yo'llari, ularga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot beriladi. Maktub didaktik xarakterda, ya'ni o'rgatish maqsadiga qaratilgan.⁹

Antik Rimning atoqli kishilari hasbi hollari jamlangan «Mashhur eranlar haqida» nomli asari, antik adabiyot namunalari jamlangan «Diqqatga molik narsalar haqida» nomli majmuada, shuningdek, antik adiblarga bitilgan xayoliy maktublarida Petrarkaning adabiy tanqidiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Jumladan, Petrarka so'z san'atiga o'rta asrlarda bo'lgani kabi oddiy bir kasb sifatida qarashga qarshi chiqadi, uni tom ma'nodagi erkin ijod mahsuli deb biladi.

Xitoy adabiy-estetik tafakur tarixidagi “xulosalarga kelish davri”da yashagan olim Van Chun (m. 27-100) “ven” so'zini qator ma'nolaridan tashqari “yozma manba” ma'nosida qo'llagan hamda adabiyot tarkibiga *shu (maktub)*, *szi (mulohaza, esdalik)* kabi tushunchalarni ham adabiy asar tarkibiga kiritgan.¹⁰

Markaziy Osiyo yozma manbalarida esa maktublarning ilk ko'rinishlari sifatida so'g'd yozma manbalari tarkibiga kiruvchi Mug' tog'i hujjatlaridan biri A-14 raqami bilan belgilangan maktub bor bo'lib bu diplomatik maktublar namunasi sanaladi. “*Janobi hukumdorga, buyuk tayanchimiz, So'gd podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e'tiborsiz quli Fatufarndan murojatnoma*” tarzida

⁹ D. Quronov, B. Rahmonov. G'arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. Toshkent. “Fan”. 2008. 34-bet

¹⁰ X. Болтабоев М. Махмудов. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I жилд. Т.: “Mumtoz so'z” 2013. 66-bet

davom etadi. V.A.Livshitsinning taxminiga ko'ra, maktub 712-714-yillarda yozilganligi aytiladi.¹¹

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" asarida *irqish* so'zini izohlar ekan, "maktub, noma ma'nosida ham qo'llanadi" (1 jild, 17-bet) deb izoh beradi. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy qo'shug' so'ziga izoh berganda ham, lirik qahramon Turkxon xotunga maktub yo'llab, "xodimi xizmatga tayyor" ekanini bildiradi (1 jild, 357-bet)¹².

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'di elig tog'dagi g'orda zohidona hayot kechirayotgan O'zg'urmishga maktub yuborib, u bilan uchrashib, suhbatlashishni ixtiyor qilganini yozadi. Kuntug'dining bu xati ham maktubning bir ko'rinishidir. Umuman olganda, maktublar Markaziy Osiyo xalqlarining maishiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Shuningdek, asosiy kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Maktub eski o'zbek tilida *bildirguluk* so'zi bilan ham ifodalangan. "O'g'uznoma" dostonida O'g'uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirguluk, ya'ni maktub yuborib, bo'ysunishni va o'lpon to'lashni talab etadi. Shu tariqa ma'lum ehtiyojlar tufayli paydo bo'lgan xabarni ifodalash shakllari ham maktubning shakllanishiga asos bo'lgan deb aytish mumkin.

Noma (fors. - xat, maktub) - 1) xat, maktub, farmon, yozilgan narsa; 2) ada-biy janr; o'zbek va fors mumtoz adabiyotlarida yaratilgan, real yoki xayoliy to'qima shaxsga, asosan, she'riy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi. Faxriddin Gurgoniy (11 -asr), Avhadiy (1274- 1338), Xoja Imod Kirmoniy (14a.)lar fors adabiyotida noma janriga asos solib, uni rivojlantirganlar. O'zbek mumtoz adabiyotida noma janrining paydo bo'lishi Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Uning «Muhabbatnoma» asari (1353-54) oshiqning ma'shuqaga yo'llagan g'azal

¹¹ X.Болтабоев М.Махмудов. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I жилд. Т.: "Mumtoz so'z" 2013. 321-bet

¹² Jalolova M "O'zbek adabiyotida noma janri. Toshkent "Fan". 1992 3-bet

shaklidagi 10 ta ishqiy maktubidan iborat. Keyinchalik Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si ta'sirida yaratilgan Xo'jandiyning «Latofatnoma», Sayid Ahmadning «Taashshuqnoma», Yusuf Amiriynig «Dahnoma» asarlarida ham noma janri an'alariga rioya qilingan: ularning barchasi bir xil vaznda, masnaviy shaklida yozilgan; barchasi ham 10 nomadan iborat. «Muhabbatnoma», «Latofatnoma», «Taashshuqnoma» asarlari bu janrning yorqin namunasi¹³.

Sharq allomalari maktubot janriga alohida e'tibor berganlar. Maktublar tadqiqi bilan shug'ullangan yana bir olim A.O'rinboyev Abdurahmon Jomiyning o'z davrida "Ruqa'ot"ga jamlangan maktublarini o'ziga tadqiqot obyekti sifatida tanlab oladi. Ularni chuqur o'rganish natijasida XIV – XV asrlarda maktub janri o'z taraqqiyotini yuqori cho'qqisiga erishganligini takidlab o'tadi.¹⁴ Bu janr ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida rivojlanishning yangi bosqichga ko'tarilish bilan birga maktubdan janr sifatida foydalanish boshlanadi. Navoiyning zamondoshlariga yozgan xatlari "Munshaot"ga jamlangan¹⁵. Bu ikki namuna XIV – XV asrlar epistolyar adabiyoti uchun yetakchi manbaaligi adabiyotshunoslik terminlari lug'atida qayd etilgan.

A.O'rinboyev, M.Hasanovlarning "Navoiy zamondoshlari maktublarida" risolasida Navoiyga yo'llangan maktublarni ko'rib maktublar chin ma'noda tarix oynasi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Munshaotlarga jamlangan maktublarni o'rganish har qanday davlat, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy tomonlarinigina o'rganishga yordam beribgina qolmay, ayrim shaxslarning arbob sifatidagi faoliyati va ma'naviy olamini ochishda ham juda qo'l keladi.¹⁶

Alisher Navoiyning Hirot, Samarqand, Astrobod va boshqa shaharlarda yashab turib, turli kishilarga yozgan nasriy maktublaridan

¹³Jalolova M "O'zbek adabiyotida noma janri. Toshkent "Fan". 1992 12-bet

¹⁴ O'rinboyev A. Jomiy maktublari. Toshkent, 1984

¹⁵ H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova. "O'qtuvchi" Toshkent 1967

¹⁶ A.O'rinboyev, M. Hasanov. "Navoiy zamondoshlari maktublarida". Toshkent "Fan" 1990.

tuzilgan “Munshaot” (“Xatlar”) asari jahon adabiyoti tarixidagi ulkan manbalardan biri hisoblanadi. Unga 88 ta ruq’a (xat) kiritilgan. Bu xatlar buyuk adibning turli holat va vaziyatdagi kayfiyatini realistik aks eltirgan tarixiy hujjatlargina emas, bal’ki Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarning nozik qirralarini ifodalagani bilan ham qimmatlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining eng muhim noma-maktublarini “Boburnoma”ga kiritgan. Maktub masalasiga munosabat bildirar ekan o’z noma-maktubida quydagi jihatlarga e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi. “...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsan va (ammo) o’qumaysan (o’zing o’qib ko’rmagansan), ne uchunkim, agar o’qur xayol qilsang edi, o’quyolmas eding. O’quyolmagandin so’ng albatta tag’yir berur eding (xatolarini tuzatgan bo’lar eding). Xatingni xud tashvish bila o’qusa bo’ladur, vale asru mug’laq(tushunarsiz)dur. Nasri muammo hech kim ko’rgon emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni “to” bila bitibsen. Qulunjni “yo” bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o’qusa bo’ladur, vale bu mug’laq alfozingdin maqsud tamom mavhum bo’lmaydur. Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug’laq bo’ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo’lur va ham o’qiguvchiga.”

Bobur bolalik do’sti, keyinchalik davlat va jamoat arbobi bo’lib yetishgan Kalonshohga yozgan noma-maktublarida sirdosh sifatida o’zini qiynagan dardlarini to’kib soladi. Yoki taslim bo’lishni istamayotgan Hindiston rojalaridan biriga yo’llagan noma-maktubida muallif keskin xarakterli shoh va sarkarda sifatida namoyon bo’ladi. Bunga o’xshash misollarni yana ko’plab keltirish mumkin

Ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maktublar tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak ularning ilk namunalari sifatida Qadimgi Rimdagi quldorlardan biri faqat yozishni va o’qishni biladigan qullariga qilqalam va yog’och donachalar tarqatgan va o’z orzu istaklarini va quldorga bo’lgan

munosabatlarini yozishi aytilgan. Bu haqidagi ma'lumot Tit Liviyning kundaliklari da hayrat bilan keltirib o'tilgan.

Buyuk yozuvchilar Abdulla Qodiriy, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov Toxir Malik kabilarning qator asarlarida ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi maktublarga misollar keltirib o'tilgan. Ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maktublar sarasiga urush davrida eng keng tarqalgan Qora xatlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

1.2 Xat, maktub, nomalarining adabiyotshunoslikda o'rganilishi

Maktub, xat, noma atamalari bir-biriga yaqindek ko'ringani bilan ular bir-biridan muayyan darajada farqli sanaladi. Adabiyotshunoslik ilmida bu uch atamaning o'rganilishida yaqinliklar bor. Ularni umumlashtirib turuvchi xususiyatlari ham mavjud.

“Maktub” so'zi arabcha so'z bo'lib izohli va etimologik lug'atlarda yozmoq, bitmoq ma'nolarini beradi. Shunday ekan, xalq orasida maktub so'zi bilan bir qatorda xat, ilm-fan kishilari orasida esa noma so'zlari yonma- yon tarzda keltirib o'tiladi. Ularni birlashtirib turuvchi va bir-biridan farqlab turuvchi jihatlari bilan birgalikda o'rgandik. Endi maktubdan farqli o'laroq xatga to'xtalishni joiz topdik.

Xat – asosida moddiylik turadi, ko'z bilan ko'rib qo'l bilan ushlab unga munosabat bildirsa bo'ladi. Shuningdek, u ma'lumot(informatsiya) uzatishga va ma'lumot olishga xizmat qiladi. Odatda oilada kimdir xizmat safari, harbiy xizmat uchun ketsa, yoki kimnidir yoqtirib qolgan insonlarda xat yozish holati kuzatiladi. Bunga sabab insonga xos bo'lgan ichki kechinmalar va ularni ifodalashga urinish sanaladi. Demak, xatlar ma'lumot almashishga xizmat qiladi. Xat uchun badiiylik muhim ko'rsatkich emas. Uslubi sodda, ravon va ikki muloqotdoshlar uchun birdek tushunarli bo'lgan so'zlardan keng foydalaniladi. Yuqoridagi maktubda esa badiiylik, estetika va fikriy ravonlik muhim.

Maktublar ijtimoiy hayotda uchrashi bilan birgalikda badiiy asarlar tarkibida ham uchraydi. Chunki, adabiyot jamiyat ini'kosi hisoblanadi. Adabiyotshunoslik va adabiiy tanqid rivojiga hisa qo'shgan maktublar turlari ham adabiy tanqidiy fikrlardan iborat yozishmalarga maktub janri namunasi sifatida qaraladi.

Umumam olganda, adabiyotda maktublarning har xil ko'rinishlari bor. Adabiy yozishmalar, publististik yozishmalar, xotiralar, ijodkorlarning o'zaro yozishmalari, tanqidchilarning yozishmalari kabi qator turlari uchraydi. Badiiy asarlar tarkibida ham o'ziga xos poetikaga ega bo'lgan maktublar uchrab turadi. Tadqiqot obyektimiz badiiy asarlar tarkibida uchraydigan maktublar bo'lganligi sababli bunday asarlari uch guruhga taqsimlash mumkin.

Boshidan oxirigacha maktublardan iborat bo'lgan asarlar. Bu turdagi asarlarda asar syujeti maktublar tarkibiga singdirib yuboriladi. F. Kafkaning "Otamga xat", O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasi Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" "Men sensiz Sen mensiz" qissalari buning ajoyib namunalari sifatida gavdalanadi

Asar maktubdan iborat bo'lib, asar tarkibidagi maktublar har bir o'ziga xos bir kompozitsion butunlik, syujet chizig'idan iborat bo'lib ularni birlashtirib turuvchi ma'lum xususiyat yoki voqelik mavjud bo'ladi. Aziz Nesinning "G'aroyib bolalar", Dostoyevskiyning "Kambag'allar", O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar" kabi asarlarini nodir namunalari sifatida ko'rishimiz mumkin.

Asarlarning ma'lum bir o'rinlarida maktubdan foydalanish holatlari ham ko'plab asarlarda uchraydi. Bunday asarlarda maktublar uni yaratgan jamiyat bilan birgalikda tasvirlanib, qahramonlar xarakteridagi o'ziga xos jixatlarni ochishga va ular orqali adibning ichki ruhiy dunyosini tasvirlashga jamiyatga munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday asarlar qatorini Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Ibrohim Rahimning "Chin muhabbat" Primqul Qodirovning qator tarixiy romanlari va hikoyalari, Chingiz Aytmatov "Somon yo'li" qissasi, Odil Yoqubovning qissa va hikoyalarida uchraydi.

Bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan adabiy tanqidchi, olim Dilmurod Quronov bu haqida fikr yuritarkan, shunday deydi: – "Adabiy-badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero, adabiy-badiiy asar muloqot

asosida dunyoga keladi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozayapsiz. Siz maktubingiz kimga yozilayotganini, uning qanday odamligi, u bilan qay yo'sinda muomala qilish kerakligini, ... har vaqt nazarda tutasiz, boshqacha aytsak, maktubni yozish davomida adresat har vaqt xayolingizda turadi: siz yetkazmoqchi bo'lgan xabarni u tushuna oladigan, unga ta'sir qiladigan tarzda yozishga intilasiz. Demak, aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz — tasavvuringizdagi suhbatdosh bilan «xayolan gaplashasiz» va ayni shu suhbat (muloqot jarayoni) qog'ozda muhrlanadi. Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi. Badiiyat hodisasi faqat ikki ong tutashgan nuqtadagina mavjud (M.Baxtin) bo'ladi. Ya'ni, badiiy asar o'qish (hamda ijod) jarayonidagina badiiyat hodisasiga aylanadi, o'qilmagan paytda esa u bir jism — qog'oz, muqova, rangdan iborat narsa xolos.»¹⁷ Shunday ekan, maktubda badiiylik va ma'lumot(informatsiya) birlashib bir butunlikni hosil qiladi.

Ibrohim G'ofurov tabiri bilan aytganda, “ Maktub, avvalo, fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baho berishga, o'z fikriga ega bo'lishga, kuzatuvchanlikka o'rgatadi. Shu bilan birga maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir”¹⁸ deb aytish mumkin. Demak, maktub yozish insonning ham ma'naviy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi hamda madaniyat darajasini o'zida namoyon qiladi.

Jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy ham o'zining “Kitobat ul-atfol” asarida maktub yozish qoidalari haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tadi. Unga ko'ra maktublar yozishning o'ziga xos qoidalari mavjudligi va ularga alohida etibor berish zarurligini aytadi. Chunki maktublar jamiyat xayotida katta rol o'ynaydigan vositadir. Sharq ziyolilari shuning uchun ham xatga doimo e'tibor bilan qaralganligini aytib o'tadi. Jumladan, Zahiriddin

¹⁷ Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. “Fan” 2007. 83-bet

¹⁸ G'ofurov I. Dil erkinligi. Toshkent. “Manaviyat”. 1998. 78-bet

Muhammad Boburning Xumoyunga yozgan maktubi yuzasidan bildirgan fikrlari buning yorqin dalili sifatida ko'rsatiladi. Behbudiy ham maktub haqida bu asarida yoshlarni sodda va ravon yozishga imkon qadar ajnabiy so'zlardan ehtiyot bo'lishga, o'zi tushunmaydigan so'zlarni qo'llamaslikka davat etadi. Bundan tashqari maktub yozuvchi maktub qaratilgan shaxsning ma'lumot darajasini hisobga olishi kerakligini ta'kidlaydi.

Ibrohim G'ofurov ijodida adabiy tanqidchilikning turli janr va rang-barang shakllaridagi asarlar uchraydi. Obzor maqola, portret-maqola, xotiramaqola, adabiy portret, taqriz, maktub, adabiy o'ylar, badia, muammoli maqola, ijodiy portret kabi janrlarda yozilgan tadqiqotlar keyingi salkam yarim asrlik o'zbek tanqidchiligi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Ibrohim G'afurovning «Adabiy qahramonlarga xatlar»i o'zbek tanqidchiligida tamomila yangi ko'rinishdagi asardir. Muallif adabiy o'ylarini — O'lmas Umarbekovning «Sevgim, sevgilim», «Odam bo'lish qiyin», «Yoz yomg'iri» asarlarining asosiy obrazlari haqidagi mulohazalarini — shu asarlar bosh qahramonlarining o'zlari Oypopuk, Gulchehra va Munisga yo'llangan maktublar shaklida bayon qiladi. Uchala qahramon ham asar nihoyasida olamdan o'tadilar. Tanqidchi ana shu qahramonlarga xat yozadi. Ular bilan va ular vositasida yozuvchi bilan va hatto, kezi kelganda, shu asar haqida fikr bildirgan tanqidchilar bilan bahs yuritadi. O' Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin», «Sevgim, sevgilim», «Yoz yomg'iri qissalaridagi Gulchehra, Oypopuk va Munisxonga yozgan tanqidchi maktublari shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'zbek tanqididagi yangi hodisadir. To'g'ri bu shaklning jahon adabiyotidagi ayrim namunalari mavjud. Masalan, Monteskening "Fors maktublari", asosan, ana shunday tarzda yozilgan. Maktublarda qahramonlarning tutgan yo'llari, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlariga, yozuvchi mahorati masalasiga munosabat bildirish orqali baho berishga harakat qilinadi. Munaqqid o'z qalbida tug'ilgan his-hayajonni kitobxon bilan baham ko'radi. Shu bois maktublarda munaqqidning

hassos qalbi ham yorqin ko‘rinadi. U qahramonlar taqdiri uchun xuddi ular bilan asar doirasida yonma-yon harakat qilayotgan yondosh qahramonlardek qayg‘uradi, ularning muvaffaqiyatidan quvonadi, ular qalbidagi kechinmalarni aniq va tiniq his etadi. Shu ma’noda uning so‘zlari samimiyligi, tabiiyligi, insonni tushuna olish quvvatiga egaligi bilan qadrlidir. Bu maktublar, birinchidan, O‘lmas Umarbekov qahramonlarining o‘ziga xos fazilatlarini ochib berish jihatidan muhimdir. Ikkinchidan, ular keng kitobxonlar ommasiga hozir ham asar va uning qahramonlari xatti-harakatini chuqurroq idrok qilishga va tegishli xulosalar chiqrishga yordam beradi. O‘lmas Umarbekov qahramonlari badiiy taqdiri ular uchun ibrat, saboq, armon bo‘lib qolishida katta o‘rin egallaydi. Uchinchidan, uning shaklida ham kitobxonga faol ta‘sir kuchi mujassam.

M.Qo‘chqorova “Maktublar – qalb ko‘zgusi”¹⁹ maqolasida bu hodisaga quydagicha baho beriladi. “Dunyoga mashhur nemis yozuvchisi I.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asari bejiz boshdan-oyoq maktub janri asosiga qurilmagan. Xuddi shuningdek, avstriyalik adib Stefan Sveygning “Bir ayol maktubi” qissasi va Frans Kafkaning “Otamga xat” essesi ma’lum badiiy maqsad, badiiy shakl imkoniyatlariga ko‘ra aynan maktub asosiga qurilgan. Gap shundaki, ijodkor epik tur janrlarida maktub janridan foydalanar ekan, bunda “xat janri orqali murojaat qilishda muallifning ruhiy kechinmalarini chin qalbdan zo‘r kuch bilan izhor qilish imkoniyati tug‘iladi”. Shuning uchun ham ba’zan yozuvchi epik asarlar kompozitsiyasini maktub asosiga qursa, ba’zida esa asar tarkibida qahramonlarning bir-biriga yozishma maktublarini asarga ilova qiladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, xat shakli chet el va g‘arbiy Yevropa adabiyotida alohida adabiy janr sifatida keng tarqalgan.”

Maktub muayyan ma’noda dil hujjatidir. Unda muallif shaxsiyati, ruhiy holati, kechinmalari aniq va xolisona ifodalanadi. Maktub mohiyatini ma’lumotning o‘zi emas, eng avvalo, obyektga munosabat, shu tufayli tug‘ilgan

¹⁹M.Qo‘chqorova “Maktublar – qalb ko‘zgusi” Jahon adabiyoti. 2009. 11-son.

shaxsiy fikr-o'ylar, kechinmalar, his-tuyg'ular tashkil etadi. Shu sababli maktublar inson hayotida ham, adabiyot tarixida ham ma'lum ahamiyatga ega. Maktubning janr sifatida tanqidchilikda qachon paydo bo'lganini aniqlash adabiy-tanqidiy tafakkurdagi izlanish, o'sish bosqichlarini aniqlash uchun alohida izlanishni talab etadi. Shu ma'noda maktubning adabiy-tanqidiy janr sifatida shakllanishi va rivojlanishi ilmiy hodisa sifatida ayricha ahamiyatga ega. Tarixan olib qaralganda, adabiy xususiyatga ega maktub (noma, xat)ning ildizi "Avesto" va O'rxun-Enasoy obidalariga borib taqalishini kuzatish mumkin.

Navoiy davri va uning nomi bilan bog'liq shuningdek, Navoiyning o'z qalamiga mansub maktublarini o'rgangan A.O'rinboyev, Y.Tursunov, M.Hasanov singari olimlarning qimmatli tadqiqotlariga qaraganda, Navoiy umrining ikkinchi yarmida o'z zamondoshlari bilan ko'p yozishmalar olib borgan. 1485 — 1499 yillar orasida temuriy shahzodalar va podshohlar, o'z yaqinlariga yozgan maktublarini to'plab, "Munshaot" nomli asar yaratgan. Asar deganimizning boisi shuki, Navoiy barcha maktublarda muhotablar (maktub yozilgan shaxslar)ning nomlari va maktublarning qayerda, qachon, nima munosabat bilan yozilganligini olib tashlagan. Natijada muayyan kishilarga jo'natilgan maktublar shaxsiy voqelik doirasidan chiqib, munshaotlarga ya'ni badiiy va chuqur linsoniy qimmatga ega badiiy asar turlariga aylangan. "Munshaot" — insholar, ya'ni maktublar deganidir. Temur va uning izdoshlari davrida madaniyat yuksak darajada gullab-yashnaganligi boisidan jamiyat, davlat va fuqarolar o'rtasida yozishmalar ajib bir tarzda rivoj topdi. Temuriy podshohlar zamonlarida va, ayniqsa, XV asrda maktublarni yig'ib to'plam qilish olijanob odat tusiga kirdi. Navoiy davrida ham ko'pgina e'tiborli munshaotlar yaratildi. Ayni vaqtda, bu maktublar o'z davridagi adabiyot, san'at, madaniyat rivojiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgani ham shubhasizdir.

Bunday maktublarning paydo bo'lish tashabbuskori gazeta tahririyati, albatta. Kezi kelganda shuni ta'kidlash o'rinliki, bu gazeta o'zbek

tanqidchiligining, umuman, faollashuvi, xususan, yuqoridagi kabi jonli izlanishlarga doimo tashabbuskor bo'lib kelmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktublar qayta qurish davrida yozilgan, shuning uchun ularda zamon ruhini, fikni, haqiqatni ochiq-oydin, baralla aytish ruhi yaqqol ko'rinib turadi. Bu maktublar, ayni vaqtda. 80-yillar tanqidchiligida jiddiy izlanishlar va o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatadi. O'zbek tanqidi tarixida munaqqid chiqishlariga shoir yoki yozuvchining javob berishi, u bilan bahsga kirishuvi, boringki, o'zini himoya qilishi kam uchraydigan hodisa. Bu holni ma'lum darajada 20-yillardagi adabiy jarayonda ham kuzatish mumkin edi. Adabiy maktubda munaqqidning munaqqidga maktubi (ko'proq javob tarzida) turi ham bor. Bu tur 20-yillarda ancha tarqalgan edi. Abdurauf Fitratning «Yopishmagan gajaklar»i bunga misoldir. Ammo bunday asarlarning janriy chegarasi hali aniqlangan emas, ularni ba'zida maqola, ba'zida maktub deb atash hamon davom etmoqda. Xarakteri, ruhi, yozilish sabablaridan kelib chiqib, adabiy-tanqidiy maktub sifatida qarasak maqbuldir .

O'zbek adabiyotida yozuvchilarning maktublari hozirgacha deyarli o'rganilmay kelayotir. Holbuki, S. Ayniy, Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, Said Ahmad, P. Qodirov. O. Yoqubov va boshqa ko'plab ijodkorlar merosi adabiy maktublarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu janrni jonlantirishda Sh.Xolmirzayev faolligini ta'kidlash o'rinli. Maktubning bu turi tanqiddan ko'ra badiiy ijodga tegishli. Shu bois ularni alohida o'rganish kerak. Bu maktublar ijodkorlarning yaxlit qiyofasini o'rganish va yaratishda muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda o'zbek adiblariga kitobxonlar yozgan xatlar ham, o'ziga xos tarzda adabiy-madaniy boylik ekani ma'lum bo'lib bormoqda. Bunga shoir Shukrullo yozilgan, yuzlab xatlar asosida tuzilgan «G'oyibona muhabbat»(2011) to'plami misol bo'la oladi.

Bizning tadqiqot obyektimiz, aynan, noma janri emas, balki nomaning badiiy asar tarkibida uchraydigan maktublarga yondosh holatda o'rganish. M.

Jalolovanning “O‘zbek adabiyotida nomachilik an‘analari”²⁰, Azimova O‘giloyning magistrlik dissertatsiya²¹larining tadqiqot obekti aynan mana shu noma janrining o‘ziga xosliklari, nomaning fors adabiyotida, turkiy xalqlar adabiyotidagi ahamiyati. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan nomalarga ham e‘tibor qaratilgan.

Turk adabiyotda ham bu mavzuga bag‘ishlangan ishlar salmoqli sanaladi. Ömer ÇAKIR “Türk edebiyatında mektup” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi orqali keng ko‘lamda o‘rganadi. Turli jihatlar bilan tasniflaydi, namunalarni ilmiy tahlil qiladi.

“Türk edebiyatında özel mekupler bibliografyası yüksek lisan tezi” orqali Orhan Okay ham turk adabiyotidagi maktublarga bibliografik yondoshadi. Ularni davrlashtirishga e‘tibor qaratadi.

Fatma Başoğuz esa maktublarga metodik jihatdan yondoshib “Bir yazınsal tür olarak mektup ve türkçe derslerindeki işlevselliği” orqali maktab darsliklarida maktub yozishni o‘rgatadi, shuningdek, darsliklardagi asarlar maktublarini ham tahlil qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, maktublarning genezisi ularning tasniflari haqida yuqorida keltirilgan olimlar o‘z fikr va muloxazalarini ifodalaganlar. Shunday bo‘lsada bu masala hozirgi kungacha to‘liq tizimli o‘rganilmagan. Bu masala o‘z doirasida yana ko‘plab tadqiqotlarga materiall bera olishi mumkin. Maktublarning o‘rganilishi har bir xalqlar adabiyotida ularning adabiy manbalari shakllanishi ta’sirida rivojlandi. Maktub yozish insonning ham ma’naviy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi shuningdek, madaniyat darajasini o‘zida namoyon qiladi. O‘zbek tanqidchiligi taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham bir-biridan yiroq bo‘lgan makonlarni

²⁰ Jalolova M “O‘zbek adabiyotida noma janri. Toshkent “Fan”. 1992

²¹ Azimova O‘ “Noma janrining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni” Farg‘ona. 2017

bog‘lashga xizmat qiladigan detal sifatida “Alpomish”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonlarida ham uchraydi.

Qadimgi Rim tarixida falsafa, ritorika fanlari rivojida ham maktublardan foydalanilgan. Ayrim fan arboblari o‘z shogirdlariga yuborgan maktublari orqali buni ko‘rishimiz mumkin.

Umuman olganda, maktub, xat, nomani bir-biridan farqlash, uning o‘rganilishiga oid ma’lumotlarni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Maktublar genezisini tadqiq qilish uning keyingi taraqqiyyoti uchun muhim sanaladi. Qadimgi dunyo adabiy qarashlarining shakllanishida va ifodalanishida maktubdan foydalanilgan. Keyinchalik esa bu adabiy tanqidda maktub janrining yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatdi.

II BOB BADIY ADABIYOTDAGI MAKTUBLARNING TASNIFI VA TADRIJI

2.1. Badiiy adabiyotda maktublar va ularning tasnifi

Maktublar markazida muloqot, muloqot markazida esa munosabat turar ekan, munosabatlarning qaysi mavzuda ekanligiga qarab maktublarni quydagi mavzularga ajratish mumkin.

Maktub uchun mavzu va zamon bilan birgalikda makon ham asosiy vazifani bajaradi. Chunki, makon yiroq bo'lmasa (yoki makon yaqin bo'lsa ham, ko'ngillar orasida masofa bo'lmasa) ko'ngil kechinmalari, his-tuyg'ulardagi g'alayon rivojlanmaydi, maktubga ehtiyoj sezilmaydi.

Badiiy asarlar kompozitsiyasida uchraydigan maktublar tasnifi masalasiga turli olimlar turlicha yondoshadilar. Masalan, Ra'no Ibrohimova maktublarni tasniflashda, ya'ni turlarga bo'lishda;

Yozishmalar; xizmat yuzasidan yozilgan xatlar; sevgi maktublari; do'stona maktublar tarzida guruhlasa, Rahim Vohidov, Mels Mahmudovlar bunga yana boshqacha nazar bilan qaraydilar.

Maktublar insonlar o'rtasidagi muloqotning ixcham va ta'sirchan shakllaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ularda maktubni yozuvchi bilan birga maktubni oluvchining kayfiyati orzu-armonlari aks etgani holda tasvirlanadi. "Maktub, xat, noma insonlarning ko'ngil kechinmalari, dil rozlarini yuzaga chiqaradi. Shu sababli, qadimdan maktublarga e'tibor katta bo'lgan. Xatlarning mazmuni turlicha bo'lishi mumkin"²²ligi haqida o'z fikrlarini bayon qiladi tadqiqodchi olim Shoirah Ahmedova. Uning tasnifiga ko'ra xatlar *buyuk shaxslarning xatlari, yozuvchilarning xatlari, tanqidchilarning xatlari; shaxsiy xatlar, do'stona xatlar, ijtimoiy xatlar,*

²²Sh. Ahmedova. Maktubot va adabiy tanqid. Toshkent. "Fan" 2005. 23-bet

publististik xatlar, adabiy xarakterdagi maktublar, rasmiy shaxslarga yo'llangan xatlar kabi qator turlarga ajratiladi. U yerdagi kishilar o'rtasidagi shaxsiy xatlar aloqa vositasi sifatida ko'rinsa, adabiyotdagi xatlar alohida bir janr hisoblanadiki, ularning tabiatini, shakllarini o'rganish hali hamon dolzarb vazifadir.

Bulardan farqli ravishda biz tasnif masalasiga quyidagicha yondashdik. Bundan tashqari, badiiy asarlarda uchraydigan maktublarning mazmuniy ko'lamdorligiga qarab quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

1. Oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar.
2. Diplomatik maktublar.
3. Ishqiy maktublar .
4. Ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maktublar.

Demak, maktublarning mazmuniy maqsadi jihatidan guruhlariga ajratdik.

“O'zbek adabiyotida xat, noma shaklidagi asarlar, shuningdek, publististik xatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Uning tarixiy ildizlari “Avesto”, “O'rxun – Enasoy” obidalarida ham ko'rinadi. Unda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Sharqiy Turkistonda sug'd tilida yozilgan dastlabki oilaviy munosabatlarni ifodalovchi ona va qizning dastlabki bir-biriga yuborgan maktublari topilgan”ligi fanga ma'lum.

O'zbek adabiyoti asardagi personaj nutqida kishilarning o'zaro suhbatlarida, yolg'izlikdagi o'y-xayollarida, maktublarida yuzaga chiqadi. Asar tilining xalqchilligi yozuvchining xalqchilligini ko'rsatadi. San'atkor xalq tilining ifodali, estetik ziddiyatlarinigina emas, uning grammatik va stilistik xususiyatlarini ham namoyish qiladi. Badiiy til imkoniyatlari faqat xalq nutqida yangi, tesha tegmagan so'zlarni topib ishlatishgina emas, adabiy tilda ishlatiladigan so'zlarning ma'no ottenkalarida yuz bergan o'zgarishlarni

ham payqash va ulardan foydalana olishdir. Ba'zi so'zlar shu qadar tezlikda yangi qirralar kasb etadiki, ularni lug'atlarda aks ettirib ulgurilmaydi.

Badiiy asarlar tarkibida uchraydigan maktublarni "asar ichidagi asarlar" deb aytishimiz mumkin chunki, maktublarda badiiylilik muhim ko'rsatkich vazifasini bajaradi. Ichki kechinmalar va hayotiy voqelikda haqqoniylikni o'zida namoyon qila oladi. Badiiy asar ichidan maktubni o'zini olib o'qiganimizda xuddi bir taqdir haqida asar o'qiyotgandek kishiga ta'sir ko'rsatadi. Maktubni o'qigan kishida uning yozilishidan maqsadi, mavzusi, va g'oyasini bila oladi. Vaholanki, o'quvchida maktubga nisbatan munosabatni yuzaga keltira oladi.

Badiiy asarlarda ishq muhabbat mavzusidagi bosh element vazifasini bajaradigan predmetlar – maktublar sanaladi. Ko'ngilga hasrat, dard ayniqsa, insonni jumbushga keltiruvchi muhabbat cho'g'i tushgan har bir insonda qog'oz va qalam bilan do'stlashish yuzaga keladi. Omon Matjon bekorga "Muhabbat bor joyda maktub, maktub bor joyda mehr bor bo'ladi"²³ degan jummlalarni keltirmagan.

Ishqiy maktublar uchraydigan asarlarni soni juda ham ko'p bizga e'tiborli jihatlari shundaki ulardan ishq muhabbatni chin ekanligini, mehrning sofligini ta'minlash uchun asarga olib kiriladi. Bunday asarlar qatoriga esa Shukur Xolmirzayevning "Bahor o'tdi"²⁴ hikoyasi, Abduqahhor Ibrohimovning "Uyqu Kelmas Kechalar"²⁵, O'lmas Umarbekovning "Sevgim-sevgilim"²⁶, Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening"²⁷, "Sen mensiz men sensiz"²⁸ kabi qator asarlarda uchraydi.

Jahon adabiyotining tengsiz namunasi bo'lgan asar Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", Aleksandr Pushkinning "Yevgeni Onegin" asarlarida

²³ Omon Matjon. Adabiy suhbat. Nurli halqachalar. 2012

²⁴ Xolmirzayev Sh. Saylanma. Toshkent. 2001

²⁵ Ibrohimov A. "Uyqu Kelmas Kechalar". Toshkent. "Sharq". 2001

²⁶ Umarbekov O'. "Sevgim-sevgilim" 5 sevgi qissasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2016.

²⁷ Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening". Qissalar to'plami. Toshkent. 2007

²⁸ Xurshid Do'stmuhammad "Sen mensiz men sensiz". Qissalar to'plami. Toshkent. 2007

asar qahramonlarining bir birlariga yuborgan xatlari asarning badiiy qimmatini oshiradi. Ushbu asarlarni o'qigan kitobxon qahramonlarning ruhiy holatini, xuddi, o'zi boshidan kechirayotgandek tasavur qiladi, ularning sevgi tarixiga qiziqadi bir so'z bilan aytganda kitobxon asar ta'siriga tushib qoladi. Bunday asarlar yaratish barcha ijodkorlarning ham qo'lidan kelmaydi, albatta. Buyuk nemis adibi Gyotening qahramoni Verter qalbidan o'tgan hislar, u go'zal qizaloq Sharlottaning sevib qolgandan boshlab unga hamroh bo'ladi. Uning sevib qolgan holati quydagi jumlar orqali maktubga joylangan.

“Qo'llarimiz to'satdan bir-biriga tegib ketsa yoki oyoqlarimiz stol ostida uchrashsa olovdan qo'rqandek qo'rqaman, o'zimni uzoqlarga tortaman. Lekin bir kuch meni o'ziga undaydi... uning soddaligi sababli shu oddiy narsalar ham meni zarzaga keltiradi ko'nglimda jo'sh urayotgan hislar ham meni qiynaydi... bu muhabbat albatta muhabbat. O'zing o'yla Vilgelm muhabbatsiz hayotning nima keragi bor menga...”

Lekin, Lotta uni tashlab ketganda ham uni sevishda davom etib hayotdan nolib shunday satrlar bitadi. *“Bazan aqlim bovar qilmay qoladi: Men uni butun qalb xaroratim bilan sevsamu, undan o'zga ma'naviy tayanchim bo'lmasayu, yana qandan qilib boshqa bir kimsa uni sevishga qodir va seva olishi mumkin.”*²⁹

Hatto, Lotta Verterni tashlab ketganda ham sevgi hisi unda so'nmaydi. Asarda maktubga Verterning ko'nglidagi hislar to'liq tushirilganligi sababli ortiqcha jimjimadordek tuyiladi. Lekin, aslida, unday emas. Chunki, oshiq ko'nglini bunday tarzda tasvirlash – ijodkorning badiiy mahorati yuksak darajada ekanlinini ifodalaydi.

Badiiy asar tarkibida maktublardan foydalanish XX asr o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda ham ko'zga tashlanadi. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar ” romanidagi Otabek va Kumushning o'zaro yozishmalari ishqiy maktublarning go'zal namunasi sifatini o'ziga qabul qila oladi va o'z

²⁹ Gyote Yosh Verterning istiroblari Toshkent. Yangi Asr Avlodi. 2006-yil - 81-bet

navbatida ushbu maktublar romanning badiiy-estetik ta'sirchanlik kuchini ortirganligini ko'rishimiz mumkin. "Mehrobdan chayon" romanida keltirilgan Ra'noning Anvarga maktubida ham obrazlarning ruhiy dunyosi o'zaro munosabatlaridan tortib o'sha davr ijtimoiy manzaralarigacha tushuntiradi va badiiy yo'sinda tasvirlaydi. Demak, maktublar badiiy adabiyot taraqqiyotini tahlil etishda, yozuvchi mahoratini, uslubini belgilashda, ayniqsa, ichki kechinmalarni asosiy planga olib chiqishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi deb ayta olamiz.

Ishqiy maktublarning asarlarga maxsus obyekt sifatida olib kirilishiga sabab ishq ko'nglini band etgan obrazning ruhiy dunyosining qanchalar kengayishi, ichki kechinmalarning bor bo'yicha, haqiqiy tasvirlashdir. Insonning ko'ngliga ishq olovi tushganda uning ichki dunyosida bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rsatish. Bundan tashqari muhabbatli insonning tashqi borliqqa bo'lgan munosabatini faqatgina ijobiy tomonga o'zgarishini tasvirlash va boshqa sabablardan asarga ishqiy maktublar olib kiriladi. Badiiy asardagi maktub yozayotgan obraz tabiiy ravishda maktub yozib turgan paytda maktub egasini hayoliga keltiradi. Vaholanki, ushbu maktubini o'qib qanday ruhiy holatda bo'lishini o'ylar rohatlanadi, azob chekadi. Shunday ekan ishq ko'ngliga tushgan insonga atrofidagi deyarli barcha yaxshi xislatli bo'lib ko'rinadi va ularga shunday munosabatda bo'ladi. Shu sababli maktub egasini ham o'zi singari ishqiboz sanaydi. Xurshid Do'stmuhammadning "Hironim mingdir mening" qissasidagi Faxri Kamolning, O'lmas Umarbekovning "Sevgim-sevgilim " qissasidagi Usmon aka obrazi ruhiy holatini tiniq ifodalashda yozuvchi maktublarga murojat qiladi. Maktub vositasida muhabbatli qalblarning sog'inchi istiroblari tasviri asarga o'zgacha ruh olib kiradi. Usmon akaning Saratov, Ukraina, Kiyev kabi saharlardagi sargardonlikdan keyin Kiyevda gospitalda yaralanib yotganda ko'ngil qo'ygani ukrain qiz Olesya edi. Usmonning sevgi ko'zi bilan tasvirlashicha uning yuzlari oppoq, bir ozgina sepkil boskan, doimo kulib turadiga

osmonday tiniq ko‘m-ko‘k ko‘zlari bor edi. Uning dard orqali topgan darddoshi, doimiy suhbatdoshi Olesya edi. Yirik rotalardan birining komandori bo‘lgan Usmon ko‘ngliga ishq olovi tushib endi urushning yakuni qanday bo‘lishiga ham qiziqmay, Olesyasi bilan doimo suhbatdosh bo‘lish vaqtini kutadigan bo‘ldi. Bu ham ishqning ming qudrati, bir hikmatidir. Ular tilga olmagan hayajon bilan muhokama qilmagan mavzu yo‘q edi go‘yo, deb hayajon bilan eslagan o‘rinlari ham uchraydi. Usmon sog‘aygach, yurtiga qaytadi Olesya bilan xat yozishib turadi. Yurtida yuqori lavozimlarda ishlaydi. Kunlarning birida u yozgan xatga javoban Olesyaning emas, uning polk kapitanining javobi keladi: unda Olesya portlashda bomba tagida qolgani haqidagi habar keltiriladi. Qahramonimiz sevgilisni yo‘qotib qo‘yganligini, endi uni xatlarini hech kim intizor kutmasligini o‘ylab ko‘chalarda ko‘p xayolchan yuradi. Hattoki, ishini tashlab ota qishlog‘i Yakkachinorga ketishga qaror qiladi. Bularning bari muhabbatning buyukligi, ishqning inson jismiga ta‘sirini belgilashidir. Ana shunday muhabbat bilan bog‘liq qalb kechinmalari, iztiroblari maktub orqali yaqqol aks etib beriladi.

“O‘zbek adabiyotida xat, noma shaklidagi asarlar, shuningdek, publististik xatlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Uning tarixiy ildizlari “Avesto”, “O‘rxun – Enasoy” obidalarida ham ko‘rinadi. Unda qayd etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Sharqiy Turkistonda sug‘d tilida yozilgan dastlabki oilaviy munosabatlarni ifodalovchi ona va qizning dastlabki bir-biriga yuborgan maktublari topilgan”³⁰ligi fanga ma‘lum.

Bugungi kunda ham qator yuzuvchilar asarlarida oilaviy munosabatlarni, undagi mehr-muhabbatni teranroq tarzda ifodalash uchun maktublardan keng foydalaniladi. Masalan, O‘lmas Umarbekovning “Qizimga maktublar”, “Sevgim-sevgilim” qissalarida maktublarning qator ko‘rinishlari bilan birga oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktub ham keltirilgan.

³⁰ Nasimxon Rahmonov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent .2016

O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar" qissasida nafas yo'llarida rak kasali aniqlanib Moskvaga davolanishga ketgan otaning qizi Umidaga yozgan maktublari, ko'ngil dardlari ko'rsatib o'tilgan. Unda oilada ota-onaning farzandaga, farzandning esa ota-onasiga bo'lgan chinakkam mehr muxabbati ko'rinib turadi. Hatto, vafoti oldidan ham farzandini o'ylashi unga intiqqligini ko'rsatish orqali qahramonning ruhiy- psixologik holati ochib berilgan.

U **"Mangu dunyo bo'sag'asida"** satri bilan boshlanadi.

"Bu dunyoga kelganlarning, albatta, ketmog'i bor. Kimdir bir kun oldin, kimdir bir kun keyin... Ketadi-yu, qaytmaydi. Mangu dunyo abadiy uni o'z quchog'iga oladi.

Ketmog'i yaqin qolganini kishi sezganda cho'chimaydi, ammo turli o'ylar qurshoviga tushadi, kechgan, kechirganlarini eslaydi, olis, yaqin odamlar ko'z oldidan o'tadi.

Men bilan ham shunday bo'ldi. Kasalxonada yotarkanman, vaqtim, irodam yetganicha, ko'nglim ko'targanicha o'ylarga, xotiralarga berilib ketib, shularni yozdim.

Umida! Qizim...

28-oktabr, 1993-yil. O'n kun davom etgan tekshirish, o'rganishlardan so'ng qandaydir aniqlik paydo bo'ldi. Davolovchi vrach Tatyana Dmitriyevna kelib, *qo'limni siqdi.*

— Kasalingiz biz xavotir olganchalik ildiz otmagan ekan. Nafas atrofidan boshqa hamma a'zolaringiz sog'. Kasal nafas yo'llariga o'tmagan. Bir-ikki kun ichida konsilium qilamiz. Radiologlar, bosh xirurg, direktor bilan maslahatlashamiz. Menimcha, sizni avval davolashimiz, keyin operatsiya qilib, kasallikni olib tashlashimiz kerak.

Istarasi issiq, nigohi samimiy shifokorning bu so'zlaridan quvonib ketdim.

Vujudim ilib, kayfiyatim ko'tarildi. Minnatdorchilik bildirib, telefonga yugurdim. Tekshirish natijalaridan Zuhra qisman xabardor bo'lsa ham o'zimning og'zimdanda xushxabarni eshitgani ma'qul edi. Qiynalib gapirsam ham Zuhra meni angladi, shu zahoti, xuddi men kabi u ham o'zgarib ketdi. Yozning boshlaridan beri birinchi marta uning ovozida sevinch ohanglari paydo bo'lganini sezdim. Telefonni yorib yuborguday bo'lib, hozir yetib boraman, dedi. Boshim osmonda edi. Xudoga shukur. Demak, bir qancha vaqt tomog'imni radiatsiya nurlari bilan davolashadi. Toshkentda o'n marta nurlanganimda shu ishlar birmuncha kamaygan edi. Kasalim tarixida yozilgan. Kim biladi, balki bu yerda shuni e'tiborga olishdimikan? Konsiliumda ham shunday qarorga kelishsa, o'zimni baxtli hisoblardim. Taxminan bir oy, bir yarim oydan so'ng uyga qaytishim mumkin. Qizim, seni ko'raman, ukalarim, do'st-birodarlarimni ko'raman. Umida, seni juda sog'indim. Deyarli har kecha qo'ng'iroqdek ovozingni eshitgandek bo'laman. Ko'z oldimda o'zing paydo bo'lib, ko'zlaring yonib: «Ada! Keldim!» - deysan-da, yonimga kelib, yuzimdan o'pgandek bo'lasan. Ko'p emas, atigi ikki haftadan beri Moskvada bo'lsam ham, har kuni sening o'qishdan qaytayotgan payting, o'z kaliting bilan darvoza-eshikni sharaqlatib ochishing, shaxdam qadamlar bilan taq-tuq, taq-tuq qilib ayvonga ko'tarilishing ko'z oldimdan o'tadi. «Ada! Men keldim!..» Qizim, jonim, seni yana ko'radigan bo'ldim. Orzum eson-omon uyga qaytmoq edi, niyatimga yetadiganga o'xshayman. Xudo xohlasa, marhamat qilsa, bir oy, bir yarim oylardan so'ng tuzalib qaytaman..."

Ushbu maktubni o'qigan har bir inson haqiqiy ota mehrini his etadi. O'zi o'limi yaqin ekanligini bilsada, jondan aziz farzandini yana qayta ko'rish ilinjida, uning issiq peshonasida o'pganda uning taftini sezish uchun hatto tuzalmas dard saraton ham qarshi chiqa olgan ota tasviri bor bu maktubda. O'zi ketmog'i yaqinligini sezsa qizining ko'nglini tinchlantirish uchun, huddi shifokorlar uning ko'nglini tinchlantirgani kabi, o'zini tobora yaxshilanayotgandek ko'rsatib qizlog'ini musiybatdan ayaydigan ota tasviri keltirilgan. Qizalog'idan

uzoqlashgandan beri uni har kecha qumsab, maktabdan kelib o‘zini kattalardek tutib eshikdan kirib kelishlarini “Ada! Men keldim” deyishlarini yana ko‘rgisi kelgan, lekin ko‘rolmasligini sezib turgan otaning mehrga to‘lgan qalbi tasvirlangan deb aytishimiz mumkin.

“Mening bir hikoyalar va qissalar kitobim bor. Unga «Oq qaldirg‘och» deb nom qo‘yganman. Oltmishinchi yillarning oxirlarida Bulg‘oriyada bo‘lganimda bulg‘or adabiyotining mashhur, el orasida katta obro‘ga ega klassik yozuvchisi Emin Pelikning shu nomdagi hikoyasini o‘qigan edim. Hikoya katta emas. Mazmuni shunday. Bir dehqon bug‘doy pishig‘i mahali dalaga, o‘rimga ketayotganida bo‘yiga yetgan qizi ham unga ergashadi. Hamma o‘rtoqlarim ketishyapti, meni ham olib boring, deb otasidan iltimos qiladi. Ota rozi bo‘ladi. Yoz. Kun issiq. Qiz dalada bir daraxtning ostida o‘rimdan charchab dam olgani yotadi va uxlab qoladi. Uyqusida ko‘kragi muz bo‘lib ketayotganini sezadi. Cho‘chib uyg‘onib qarasa, ko‘krak ustida kulcha bo‘lib, ilon yotgan emish. Dod solib, qiz uni uloqtiradi. Hamma uning ovozi eshitib, yugurib keladi. Qiz bo‘lgan voqeani aytib beradi. Shu kundan boshlab u kasalga chalinib qoladi: ovqatlanmaydi, uxlamaydi, ko‘ngli ag‘dariladigan bo‘lib qoladi. Ota-ona uni hamma yaqin oradagi shifokorlarga, tabiblarga ko‘rsatishadi. Ammo qiz tuzalmaydi. Kimdir ularga qizingiz oq qaldirg‘ochni ko‘rishi kerak, shunda tuzaladi, deb maslahat beradi. Er-xotin aravaga qizlarini yotqizib, oq qaldirg‘och qidirib ketishadi. Ular telegraf ustunlariga tortilgan simyog‘ochlar ostida qishloqma-qishloq, shaharma-shahar uzoq kezishadi, oq qaldirg‘ochni topishga qizlarini ishontirishadi. Qiz shu ishonch bilan yashaydi. Umid bilan simyog‘ochlarga, osmonga tikiladi.

Tatyana Dmitriyevna o‘z hamkasblari bilan menga shunday ishonch berishdi. Nurlanish, kimyoviy terapiya bundan bu yog‘iga mening oq qaldirg‘ochim. Men uni topaman, uni ko‘raman. Zora bu go‘zal, beozor qush menga ham Xudoning shifosini olib kelsa?! Ikkinchi qaldirg‘ochim — jonimdan

ham aziz qizim Umida. Uning uchun yashashga intildim, hamma xayolim, quvvatimni jamlab, sihatimni yaxshilashda shifokorlarga yordam berishim kerak....

Umida, jonim qizim! Yaxshiyam Xudo bizga seni berdi. Opang kabi men uchun ham eng aziz, eng qimmatli, eng shirin va shakar odamsan. Sening baxtli bo'lishingni qanchalik istashimni bilsang edi! Omon bo'l, qizim. Barcha orzularingga yet. Men har kuni Xudodan opang bilan sening baxtingni so'rayman. Uzoq umr ko'rishingni, niyatlaringga yetishingni so'rayman. Har qanday balo-qazolardan seni asrashini, sendan, opang, ammalarining, Akmal akangdan marhamatini ayamastligini so'rayman. Arzandam, yolg'izim, agar ba'zida seni urishgan bo'lsam, kechir. Faqat yaxshi niyatda shunday qilganman. Seni yaxshi ko'rishimni, hech kimga ishonmasligimni yaxshi bilasan. Qizim, agar taqdir taqozosi bilan endi ko'rishmay qolsak, opangni ehtiyot qil. Bechora opang men bilan ko'p azob chekdi. Sen uni hurmat qil. Yolg'izlatib qo'yma. Qattiq gapirma, yaxshi gapingni ayama. Iloji bo'lsa doim birga tur. Qizim, hayotingga gard yuqmasin, baxtli bo'l. Omon bo'l, farishtam, arzandam!.."

Yuqoridagi maktub orqali esa ota shaxsiyati naqadar ulug' ekanligi tasvirlangan. Chunki, oddiy bir hikoyadan ham o'ziga shifo izlaydigan darajada ulug' ekanligi ko'rinadi. Unga umid bag'ishlagan Amin Pelkning "Oq qaldirg'och" hikoyasidagi oq qaldirg'ochlar ekanligini, hatto qizini ham o'sha qaldirg'ochlar qatorida ko'rishini namoyon qilib, asar badiiyligini oshirgan maktub sifatida qarashimiz mumkin ushbu maktubga.

Maktub orqali qiziga mehrini *jonim qizim, arzandam, yolg'izim, farishtam, ikkinchi qaldirg'ochim* deya murojat qilib erkalaydi va oila a'zolariga mehr-oqibatli bo'lishga chaqiradi. Qizining qanchalik yaxshi ko'rishini, uni ehtiyot qilishini, hamma narsadan afzal ko'rishini, farishta singari begunoh qiz ekanligini sezishini, unga bo'lgan ishonchining yuqoriligi sababli opasini hatto onasini ham

unga ishonib ketayotganligini qiziga aytmoqchi bo'lgan. Ota tomonidan bildirilgan eng sof tilaklar asarning badiiy qimmatini va ahamiyatini yanada oshirgan.

...Qish kunlarining birida dadam uyga rus chol-kampir bilan o'rta yoshli bir ayolni boshlab keldilar.

— Bugun vokzalda edim, kelganlarning hammasi har qayoqqa ketishyapti. Bular turishibdi. Qayoqqa borishlarini bilishmaydi. Yuklari yo'q. Leningraddan kelishibdi. Boshlab kelaverdim. Bitta xonani beramiz. Bitta oila ekan.

Dadam shunday deb, bizni ularga tanishtirdilar. Katta xonamizni, ikki eshikli, oynavonli ayvonimizning bir eshigi yonidan faner bilan to'stirib, ularga ajratib berdik. Uyda uchta to'r simli temir karavot bor edi. Shularni ham ularga berib, o'zimiz yerda yotadigan boldik.

— Bular yerda yotishga o'rganmagan. Keyin uchalovi ham ziyoli odamlar ekan. Xotini o'qituvchi, o'zi, qizi doktor ekan, - dedilar bizni o'zlaricha ovutgan bo'lib dadam.

Leningradlik mehmonlar to'rt yildan ziyod, 1946-yilning yozigacha biznikida turishdi. Bag'rikenglik qilinsa, kichkinajoyga ham sig'ib ketaverilar ekan. Ular uch kishi bir uy, ayvonning choragida; oyim, opam, dadam, yana to'rtta bola bir uy, ayvonning qolgan qismida hech qanday xunobgarchiliksiz shuncha yilni o'tkazdik. Ular bilan bir oiladek bo'lib ketdik.

Ushbu maktub orqali o'zbeklarga xos milliy bag'rikenglik tasvirlanagan, boshqa millat vakili bo'lishiga qaramay, bir oiladek qabul qila oladigan XX asr qahramoni —“o'zbek otalari” tasviri qisqa va lo'nda tasvirlangan. Ushbu holatni tasvirlashda ortiqcha bo'yoq berilmagan. Barchasi boricha oddiy tasvirlangan. Shunday bo'lsada jummlalar orqali o'zbekona mehr, o'zbekona taft sezilib turishi bilan badiiy ahamiyatga egadir. Adib qizini nafaqat oilasiga qaygurishga oila a'zolarini hurmat, extiyot qilishga balki boy adabiy merosga beparvo bo'lmaslikka

ham chorlaydi asari orqali. Shuningdek, adabiyotdagi bo‘ronli yillardan keyin “O‘tkan kunlar”ni ulug‘ kitob ekanligini ta’kidlaydi va musulmon xalqlari madaniyatining faxri sifatida baholaydi. Bu orqali ilgariroq ayta olmagan, yoza olmagan fikrlaridan ham halos bo‘ladi.

Nazarimda Moskvada meni davolay boshlaganlaridan beri, anchagina dilim tinchib, qo‘limga qalam oladigan holatga kelganimdan beri senga atab yozmoqchi bo‘lganlarim nihoyasiga yetib qoldi. Hozircha kifoya. Xudo xohlasa, uyga qaytsam, esimga tushgan voqealarni yozib berarman. Xatlarimning so‘ngida ustoz Abdulla Qahhorga o‘xshab, senga, qizim, beradigan ikkita maslahatim bor. Birinchisi:

— *Bu dunyoda opangchalik senga mehribon, yaqin, aziz, sendan jonini ham ayamaydigan odam yo‘q. Birga bo‘l. Yolg‘izlatib qo‘yma. Asra. Ikkinchi maslahatim:*

— *Davr o‘zgarib ketdi, qadriyatlar o‘zgardi. Lekin hamma davrda halol mehnat, poklik, odamiylik qadrlangan. Shu yodingda bo‘lsin.*

*Yolg‘izim, suyukligim, xayr, omon bo‘l, baxtli bo‘l.*³¹

O‘lmas Umarbekov

1994-yil

Maktublariga yakun yasar ekan ota qiziga bergan ikki maslahati nafaqat Umidaga balki barcha opa-singillarga berilgan maslahatdir. Bu o‘rinda Adibning ikki maslahati “Qizimga maktublar”ning badiiylik qimmatini yanada oshira olgan. Albatta, bu nafaqat Umarbekovning qiziga maktubi balki, ushbu davrdagi barcha otalarning qizlariga aytmoqchi bo‘lgan gaplari, ko‘ngil kechmishlari deb aytishimiz mumkin.

³¹ O‘lmas Umarbekov. Qizimga maktublar. Ziyo.net

Asar o'ziga xos kompozitsion butunlikdan iborat. U o'zida tuyg'ular tasviri, oilaviy munosabatlar dinamikasi, yuqori badiiy saviya va yozuvchi mahoratini birlashtirgan.

O'lmas Umarbekovning yana bir ijod mahsulida mavzumizga aloqadorlik ko'zga tashlanadi. To'g'ri bu "Qizimga maktublar"chalik badiylik qimmatini yuqori bo'lmasligi mumkin. Lekin yozuvchi o'z fikrini, ruhiy holat bayonini asarga singdira olgan maktublar uchraydigan asarlar qatoriga qo'sha olamiz. Adib "Sevgim-sevgilim"asarda institutni tamomlab otasining rayiga qarshi borolmay Toshkentdan Samarqandning ikki tog' orasida qisilibgina joylashgan Yakkachinor qishlog'iga dastlabki ish faoliyatini boshlash , ish o'rganish va malaka hosil qilish uchun kelgan O'ktamga otasining yozgan maktubi va otasiga O'ktamning javob maktublarini keltirish mumkin. Ushbu maktub orqali maktubning yana bir xususiyati – ruhiyat ifodachisi ekanligi yuzaga chiqadi. O'ktam qishloqda yoqtirib qolgan qizi Oypopuk bilan uchrashib qaytganida doktor unga otasidan xat kelganligini ko'rsatadi. Xat quydagicha edi.

"O'g'lim so'ngi xatingni olib xursand bo'ldim. Yakkachinorning yaxshi joyligini bilardim. Eskadronimiz 29-yili o'sha qishloqda turgan, lekin senga bunchalik yoqib qolishini o'ylamagan edim. Ketib qolasanmi deb qo'rqib yurgandim. Endi ko'nglim joyiga tushdi. Og'ir bo'l, nojo'ya ishlar qilib yurma .

Mening ahvolimni so'rasang yomon emas ...

Ha, aytganday, bir narsani so'ramoqchi edim. Xating bu gal ancha tarqoq , ega-kesimining tayini yo'q. Tinchlikmi o'zi, yo ishing ko'pligidan shoshib yozdingmi bir kun oldin bir kun keyin shoshma.

*Salom bilan otang "*³²

Asardagi xatning ahamiyati asarda O'ktamning ruhiyatidagi o'zgarishlarni ifodalash sanaladi. Uning shoshqinligiga sabab o'z ko'ngliga

³² O'lmas Umarbekov. Sevgim sevgilim. Besh sevgi qissasi. Toshkent. 2016.

yoqqan insonini – Oypopukni topganligi. Ko‘nglida ishq g‘alayon qilayotganligidir. Buni otasiga xat orqali ayta olmay javob xatida uch to‘rt kunda boraman fikrimning tarqoqligining sabablarini o‘shanda gaplashamiz, degan javob bilan qoldiradi, otasidan hol-ahvol so‘rab javob xatini yakunlaydi. Asardagi “*Xating bu gal ancha tarqoq , ega-kesimining tayini yo‘q.*” jumlasini ruhiyatni tasvirini o‘zida aks ettirgan. Bu orqali hatto so‘zdan sezilmaydigan his tuyg‘ular maktubda o‘z aksini topishi ko‘rsatilgan. maktub insonning qalb oynasi ekanligini tasvirlay oladigan mo‘jiz sifatida namoyon bo‘lgan.

Jahon adabiyotida oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublarning namunasi sifatida Avstriyalik adib Stefan Sveygning bir ayol maktubi “Bir ayol maktubi” qissasi va Frans Kafkaning “Otamga xat” esssesini ko‘rsatish mumkin. Ushbu ijodkorlar epik tur janrlarida maktub janrida foydalanar ekan unda muallifning ruhiy kechinmalarini chin qalbdan zo‘r kuch bilan izhor shuning uchun ham ba‘zan yozuvchi epik asarlar kompozitsiyasini maktub asosiga qursa ba‘zida esa asar tarkibida qahramonlarning bir biriga yozishma maktublarini asarga ilova qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek xat shakli chet el va g‘arbiy Yevropa adabiyotida alohida adabiy janr sifatida keng tarqalgan. Rus adabiyotshunosi Lidiya Ginzburg “Boris Posternak xatlari” deb nomlangan esssesida maktub janrining ahamiyati haqida shunday fikrlarni bildiradi “Insoniyatning muloqot vositalaridan biri bo‘lgan maktub (xat) turfa ma‘noga ega. Unda axborotni jamlash imkoniyati mavjud, mulohazani bayon etish, emotsiya, qiziqishlarni ifoda qilish mumkin”³³. esa bunday maktublarning namunasi sifatida

O‘lmas Umarbekovning yuqoridagi asarlari bilan bir qatorda Erkin A‘zamning “Jannat o‘zi qaydadir” asarida keltirilgan dadaning oilasiga, xususan, ayoliga yozilgan maktubi keltirilgan. Ushbu asardagi maktub boshqa asarlardagi maktublardan oila tomonidan ko‘p intizor kutilganligi bilan

³³“Jahon adabiyoti” jurnali Marhabo Qo‘chqorova maqolasi. 2009. 11-son.

farqlanadi. Bundan tashqari Shukur Xolmirzayevning “Qaytish”, “Shudring tushgan bedazor”, “Ota yurt”, “Sog‘inch” kabi asarlarida xam oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar ko‘plab uchraydi.

Badiiy asarga oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublarni olib kirilishiga sabab oilaviy munosabatlardagi tuyg‘ularning haqqoniyligini oilaviy muhit tasvirini asarda tabiiy chiqishini ta’minlash sanaladi.

Adabiyotshunoslik rivojida, xususan, adabiy janrlar takomilida o‘ziga xos o‘rin egallagan yan bir maktublar bor-ki ular da yozuvchilarning hayoti va ijodidagi o‘zgarishlarni, biror asarni yaratish oldidan ularning ruhiyatida kechgan, ichki kechinmalarini o‘zida mujassam qilgan janr bu adabiy maktublar janri. Ushbu janr bizning tadqiqot obyektimiz sirasiga kirmasada yuksak saviyadagi badiiy asarlarni yaratish uchun xizmat qilganligi sababli ularga munosabat bildirib o‘tmoqchimiz.

Adiblar o‘z qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiy dunyosini yaqqolroq ochib berishda, ularning ruhiy holatini to‘laroq tasvirlashda maktublardan foydalanadi. Chunki maktub orqali qahramon ko‘nglidagi orzu-armoni, o‘y-hayollari, istaklari to‘la namoyon bo‘ladi. Lekin yozuvchining biror asar yaratishdan oldin, asarni yozib turgan davrida yoki yozuvchi shaxsiyatini ifodalovchi farzandlariga, oila a‘zolariga, turmush o‘rtog‘iga yozgan maktublari orqali ham bilib olishimiz mumkin.

Maktublarning badiiy asardagi o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak, badiiy asarlardagi obrazlar nutqida maktubdan foydalanish holatlar juda ko‘p uchraydi. Chunki asar nutqida qahramon nutqi orqali ichki kechinmalar, orzu-xayollar, o‘ylar, insonning ruhiy holati, kayfiyatini o‘zida namoyon qiladi. Uni yanada yorqinroq, aniqroq va tasirchan ifodalash uchun uning ko‘ngil kechinmalariga yo‘g‘rilgan maktub obrazi badiiy asarga kirib keladi. Bugungi kunda shunday asarlar borki, asar kompozitsiyasidan maktubni chiqarib yuborsak, asar mavzusiga, g‘oyasiga, hattoki, keyingi voqealar rivojiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shuningdek, asarning ahamiyati va saviyasi

umuman yo‘qoladi. Yoki shunday asarlar borki, asar boshidan oxirigacha maktublar bilan yozilgan. Asardagi maktubning qaysi o‘ringa joylashtirish adibning mahoratiga bog‘liq. Chunki, bunday asarlarda yozuvchining g‘oyaviy badiiy niyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan predmet maktublar sanaladi.

Asarlarning tarkibidagi maktublarning shakli, hajmi, ifoda usuli, inson ruhiyatinni tasviri qaysi janrda yaratilganligiga ham bog‘liq. Chunki kichik epik janr namunalari bo‘lgan hikoyalarda uchraydigan maktublar hajmi jihatidan qisqaroq, mazmuni esa yengilroq tarzda ifodalanadi. Lekin asarda maktubning o‘ziga xos o‘rni sezilib turadi. O‘rta epik janr namunalari sanalgan qissalarda uchraydigan maktublar va ularning mazmuni mavzu ko‘lami kengroq, yirik epik janr namunalari bo‘lgan romanlarda uchraydigan maktublar saviyasi salmog‘i asar voqealariga ta’siri va ahamiyati jihatidan ancha kengroq. Romanlarda uchraydigan maktublarda inson ruhiyati, ichki dunyosi, g‘oyalari va ularning ahamiyati asar voqeligi bilan bir qatorda, insoniyatga ham o‘z tasirini o‘tkazmay qolmaydi.

Asarlarga maktubning maxsus obeykt sifatida olib kirilishida zamon va makon o‘ziga xos o‘rin tutadi. Masalan, qadimgi va o‘rta asrlar tarixini aks ettiruvchi asarlarda uchraydigan tarixiy maktublar (turli to‘qnashuvlar va talofatli janglar bilan boy bo‘lganligi sababli) aksariyat siyosiy mavzuda, I – II jahon urushini o‘zida aks ettirgan asarlarda esa maktublar olib kelgan xabarlar ijobiy va salbiy ko‘rinishda tasvirlanadi. Urushdan keyingi davr asarlari kompozitsiyasidagi maktublarda do‘stlik, ishq muhabbat kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Kompozitsiyasida maktublar ishtirok etgan asarlar va ularning adabiyotshunoslik rivojida o‘ziga xos o‘rini mavjud.

Kichik epik janr namunalari bo‘lgan hikoyalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ulardagi maktublarning kompozitsion tuzulishi, yoki asardagi maktublarning asar voqealari rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, hikoyalar qisqa

burib ketib qoladi. Hikoyada aynan maktublar matni keltirilmaydi, lekin ularning soni o'ndan ortiqqligini o'quvchining o'zi ongli ravishda tushunadi. Shunday bo'lsada undagi maktublar voqealar rivoji uchun ham o'z tasirini ko'rsatadi. Asarda ham kulminatsiya, ham tugun vazifasini bajargan qora xat asar mavzusini, mazmunini, zamon va voqelikni o'zida aks ettira oladi.

Badiiy asar kompozitsiyasida maktublar ikki xil ko'rinishda o'rin oladi.

1) matn ko'rinishida uchraydigan xatlar (bu ko'rinishda aniq maktub matni beriladi), yoki maktub matnidan parcha beriladi ;

2) mazmun ko'rinishida uchraydigan xatlar deb aytish mumkin.(Maktub matni keltirilmaydi aksincha maktubning mazmuni asar voqealari rivojiga ta'sir ko'rsatib turadi).

Asarlar tarkibida maktublarning ikki xil shaklda mazmun va shakli (matn) ko'rinishda uchrashi adabiyotning dastlab og'zaki shaklda yuzaga kelganligi bilan bevosita bog'liq, keyinchalik yozma adabiyot shakllanib xabarlar yozma shaklda yuborilgan. Bugungi kunda yaratilgan asarlarda ham har ikki turi ham saqlangan.

Demak, asarlarda uchraydigan maktublarni matn ko'rinishida uchraydiganlarini shakliy jihatdan, asarda matni keltirilmasada ifodalanadigan maktublarni mazmunij jihatdan tahlil qilsak bo'ladi.

Bu mavzuni qiyosiy jihatdan tadqiq qilish uchun Chingiz Aytmatov ijodidan, aynan urush davrlari tasviri yaratilgan "Somon yo'li " qissasini olaylik. Qissaning kompozitsiyasida maktublarning o'rni ahamiyatlidir. Asarda uchraydigan maktublar soni to'rtta ushbu maktublar asar syujetiga o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Asardagi To'lg'onoyimga eri Jaynoqdan kelgan ikkita maktub, Qosim va Jaynoqning o'limi xabarini keltirgan qora xat va Maysalbekdan onasiga yuborilgan maktub – aynan matni keltirilgan.

Matnli maktublarning tahlilga tortishda maktublarning o'ziga xos kompozitsiyasiga e'tibor bersak bo'ladi. Maktublarni shartli ravishda quyidagicha qismlarga ajratish mumkin.

Kirish

Salom

Xolati bayon - Fikr bayoni

Maqsad

Xulosa

Yakuniy so'z

Maktub yozilgan vaqt

Maysalbek maktubini kompazitsion tahlili.

Kirish – “Onajon, oq sutingdan aylanayin, onajonim,”

Salom – vidolashuv maktubi bo'lganligi sababli salom yuborilmagan.

Xolati bayon - Fikr bayoni – “Bir soatdan keyin men Vatanim topshirgan ishga borib, qaytib kelmayman, dushman to'dasiga borib, uni qiyratib, o'zim ham yo'q bo'laman. Vatan uchun, xalq uchun, g'alaba uchun, dunyodagi barcha ezguliklar uchun...”

Maqsad – urush davrida urushga ketgan odamni kutish insonga qanchalik og'ir, qiyin ekanligini bilib turib, o'z onasiga o'zini o'lganini ma'lum qilish orqali bu intiqlik degan tuyg'udan oila a'zolarini xalos etish. Quydagi jumlar orqali ochib berilgan. “Bu mening so'nggi xatim, so'nggi qalam tebratishim, so'nggi so'zim. Ona, ming bir ikki marta ona desam ham qadringga yeta olarmidim, tushungin: bu jo'ngina o'lib berish emas, bu osongina jondan kechish emas, bu umr surishning eng tengsiz turi. Balki quloqqa qayta-qayta uqilsa ham, bu yashash uchun bo'lgan o'lim. Men hozir

shuni o‘z ixtiyorim bilan tanladim. Mening hech qanday tap tortadigan yerim yo‘q. Vatanim bu ishni menga ishonib topshirgani uchun faxrlanaman.”

Xulosa – “Meni yo‘qlama, ona. Meni nishona qoldirib ketmadi, dema. Dunyoda bundan keyin urush bo‘lmasa, yangi ko‘z ochgan bolaning ingalagani — o‘sha men, bo‘y yetgan qizlarning javdiragan ko‘zlari — o‘sha men, nihollardan ko‘kargan kurtak — o‘sha men, dalada unib chiqqan ekin — o‘sha men, muallimning bolalarga birinchi o‘rgatgan «a» harfi—o‘sha men, o‘shaning bari men, o‘shaning bari meni men deb bilib yurgin, ona!

Yig‘lama, ona, hech kim yig‘lamasin. Bunday o‘lim uchun hech kim yig‘lamasin” – Yig‘lamaslikka da‘vat.

Yakuniy so‘z –“ Alvido, manguликка xayr, alvido!.. Alvido, cho‘qqilaringdan aylanayin, Olatov! Sening muallim o‘g‘ling — leytenant Maysalbek Suvonqulov”.

Maktub yozilgan vaqt – “Front. 1943 y. 9 mart. Tungi soat 12”³⁴.

Demak, bu yerda maktubning markaziy mavzusi vidolashuv, ham hayot bilan, ham onasi va u orqali oila a‘zolari bilan vidolashuv. Shunday bu mavzudagi maktublar urush davrini o‘zida mujassam qilgan qator asarlarda ko‘rinib turadi. Xususan, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Cho‘l havosi”, Ibrohim Rahimning “Chin muhabbat”, “Ixlos” kabi asarlarda urush davrini aks ettiruvchi bunday maktublarning eng ta’sirli namunalari uchraydi.

Bugungi kunda badiiy asar tarkibida uchraydigan shunday maktublar borki, unda ishlatiladigan oddiy so‘zlar ham bir qancha ma’no bera oladi. Hatto oddiy detallar ham yangi bir ma’no kasb etadi. Bu maktub badiiy asarda uchraydigan siyosiy yozishmalarni o‘ziga qamrab oladigan diplomatik maktub hisoblanadi. Diplomatik maktublar tarixiy va zamonaviy detektiv asarlar tarkibida uchraydi. Diplomatik maktublarning tarixiy ildizlari qadimgi dunyo tarixiga borib taqaladi. Ushbu fikrimizning yorqin dalili sifatida Doro I ning Aleksandr Makedonskiyga yuborgan elchilari olib borgan

³⁴ Chingiz Aytmatov. Somon yo‘li qissasi. Toshkent “Sharq”.2006

predmetlardan iborat maktubini misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu diplomatik maktubdagi predmetlarning ma'lum ma'nodagi diplomatik ahamiyatli ko'rinadi. Unga ko'ra Doro I Aleksandrga uchta predmetdan iborat maktub – siyosiy o'xshatmali xabar yuboradi. Ushbu maktubdagi predmetlar “to'p, chavgon, don” yuboradi. Bu buyumlardan “to'p – dunyo yumaloq, aylana va u mening qo'limda”, “chavgon – hali sen yoshsan siyosat maydonidan o'zinga joy qidirmay hozircha o'yiningni o'ynagin deydi”, “don – bu uning askarlari timsoli bo'lib uni qushlarga sepib beradi va mana askarlaringni holi neligini ko'r”³⁵ degan ma'noda shularni yuboradi.

³⁵Fozila Sulaymonova. Sharq va Garb. Toshkent. “O'zbekiston”. 1997. 127-bet

2.2. Badiiy adabiyotda maktublar va ularning tadrijiy rivoji.

Maktublar uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega bo'lib qadimgi dunyo tarixidan buyon fanga ma'lum. Badiiy asarlar tarkibida esa xalq og'zaki ijodi namunalaridan boshlab uchraydi.

Xat amaliy ehtiyoj natijasida paydo bo'ldi, unga badiiy sayqal berilib – badiiylashib, ta'sirchanligi yuqori bo'lgan so'zlardan foydalanib esa maktub yaratildi. Xat va maktubning ahamiyati yuqori darajaga ko'tarilib bir qancha soxada foydalanila boshlandi, xususan badiiy adabiyotda ham. Davrlar o'tib maktublar badiiy adabiyotdagi o'rni va ahamiyatining yuqorilashishi natijasida alohida bir janrga – nomalarga aylandi.

Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'atit-turk” asarida *irqish* so'zini izohlar ekan, “maktub, noma ma'nosida ham qo'llanadi” (1 jild, 17-bet) deb izoh berishi haqida ma'lumot berib o'tdik. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy qo'shug' so'ziga izoh berganda ham, bu so'z orqali habarga- maktubga ishora qiladi. Asarda lirik qahramon Turkxon xotunga maktub yo'llab, “xodimi xizmatga tayyor” ekanini bildirib maktub yuborishi (1 jild, 357-bet) orqali maktublarning yozma adabiyotga ham kirib kelganligini o'zida namoyon etadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida ham asar qahramonlarining o'zaro maktub orqali muloqot qilish epizodlari uchraydi. Xususan, Kuntug'di elig tog'dagi g'orda zohidona hayot kechirayotgan O'zg'urmishga maktub yuborib, u bilan uchrashib, suhbatlashishni ixtiyor qilganini yozadi. Kuntug'dining bu xati ham maktubning bir ko'rinishidir. Umuman olganda, maktublar Markaziy Osiyo xalqlarining maishiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Shuningdek asosiy kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Maktub eski o'zbek tilida *bildirguluk* so'zi orqali ham ifodalangan. "O'g'uznoma" dostonida O'g'uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirguluk, ya'ni maktub yuborib, bo'ysunishni va o'lpon to'lashni talab etadi. Habarni yetkazuvchiga esa bildirgulukchi deya murojat qilingan o'rinlar uchraydi. Shu tariqa ma'lum ehtiyojlar tufayli paydo bo'lgan xabarni ifodalash shakllari ham maktubning shakllanishiga asos bo'lgan deb aytish mumkin.

Fors-tojik adabiyotidagi noma janri ham o'zbek adabiyotidagi ilk nomaning shakllanishiga ta'sir etgani shubhasizdir. Fors adabiyotida nomachilik uzoq tarixga ega. XI asrda yashagan Faxriddin Gurgoniy "Vis va Romin" dostonida noma janrining mukammalroq namunasini ko'ramiz. Shu o'rinda "Shohnoma"ning ishqiy-romantik parchalari fors adabiyotiga ta'sir etganini aytib o'tish maqsadga muvofiq. E.E.Bertelsning ta'kidlashicha, fors adabiyotida yangi janr – romantik eposning paydo bo'lishiga aynan "Shohnoma" ta'sir etgan bo'lib, bu janr ijodkorining ilk vakili Faxriddin Asad Gurgoniydir. 1048 yili u "Vis va Romin" dostonini yozadi, dostonida shahzoda Rominning sevgilisi Visga bo'lgan sevgisi va bu muhabbatning fojiali tugaganini hikoya qilar ekan, bu orqali qadimgi Eronning hayoti manzarasini tasvirladi. Bu romantik epos g'arb adabiyotidagi Tristan va Izolda haqidagi o'rta asar xalq romanini eslatadi. "Vis va Romin" dostonida ma'shuqa Vis Rominga yuborgan o'nta noma keltiradi. Bu nomalar sevgi va hijron azoblariga to'la maktublardir. Bu o'nta nomani Faxriddin Gurgoniy "Dahnoma" sarlavhasi ostida beradi. Keyinchalik Avhadiy (1274-1338)ning tugallanadigan noma janri sifatida yaratilgan "Dahnoma"si yuzaga keldi. Bu asar qaysi manbalar asosida yaratilganini Avhadiy ko'rsatmagan. Avhadiydan keyin "Dahnoma" yozish an'anaga aylangan. Xoja Imodiddin Faqih Kirmoniy "Muhabbatnomai sohibdilon" yoki "Dahnoma" asarini yozdi. Bu asar ham o'nta nomadan iborat. Bu asar ham o'nta nomadan iborat bo'lib, nomalarda muallif sevgi iztiroblarini sakkizta ishqiy-romantik dostonlar bilan izohlaydi. Bular – "Varqa bilan Gulshoh", "Vis va Romin", "Vomiy va Uzro", "Xusrav va Shirin", "Rubob va Daf" "Bishr va Hind",

“Yusuf va Zulayho”lardir³⁶. Mazkur dostonlar Sharq adabiyotida ma’lum va mashhur afsonalar asosiga qurilishi bilan birga, majoziy obrazlar zaminida yaratilgan dostonlar ham bu noma janrida ishtirok etgan. Xullas, nomachilik fors adabiyotida qadim ildizlarga ega. Ayni paytda Markaziy Osiyoning qadimiy udumlari, yuqorida ko’rib o’tganimizday, ijtimoiy, siyosiy va harbiy hayoti ham noma janriga o’z ta’sirini o’tkazgan. Yana shuni aytib o’tish kerak-ki, o’zbek adabiyotida noma janrini boshlab bergan va rivojlantirgan ijodkorlar, Oltin O’rda adabiy muhiti forscha nomalardan yaxshi xabardor bo’lgan. Muhammad Xo’jabekning Xorazmiyga qarata “Ochunda porsiy daftarlaring bor” degan gapi ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. Xorazmiy singari etuk ijodkorlar ham, qolaversa, keng xalq ommasi ham fors tilidagi nomalardan yaxshi xabardor bo’lgan. “Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Taashshuqnoma”, “Dahnoma”, “Haqiqatnoma” kabi asarlar bu janrning yorqin namunasi sanaladi. Bu asarlar ko’plab tadqiqotlar uchun material bera olgan asarlar hisoblanadi. Yuqoridagi baracha asarlardagi nomalar o’zbek adabiyotida maktub obrazi tadrijiy rivojini eng yuqori bosqichlarga olib chiqa olgan asarlar sanaladi.

Noma — o’zbek mumtoz adabiyotining janriy ko’rinishlaridan biri. Lug’aviy jihatdan bu forsiy so’z «xat», «maktub» degan ma’noni anglatadi. Istilohiy ma’nosi ham shundan kelib chiqadi. Chunki shaklan noma janriga doir asarlar xat, maktub tarzida bitiladi. Biroq endi buni boshqa asarlar ichida qahramonlarning bir-biriga maktub yo’llashi bilan bir narsa deb tushunmaslik kerak. Masalan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning Shiringa, Shirinning Farhodga, shuningdek, «Layli va Majnun»dan Laylining Majnunga, Majnunning Layliga maktublari o’rin olgan. Mustaqil biror asar tamoman noma usulidan foydalanilgan holda bitilsagina, u noma janriga daxldor hisoblanadi. «Noma» so’zini asar nomiga tirkash bu janrga taalluqli bo’lmagan boshqa asarlarda ham uchraydi. Masalan, Salohiddin Toshkandiyning «Temurnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur-ning «Boburnoma», uning nevarasi

³⁶ Jalolova M “O’zbek adabiyotida noma janri. Toshkent “Fan”. 1992. 10-bet

Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarlari nomlarida «noma» so'zi ham qo'llangani bilan ular noma emas, sarlavhada qayd etilgan shaxs hayoti bilan bog'liq tarixiy asar ma'nosini anglatadi³⁷.

XI-XV asrlar badiiy asarlar tarkibida uchraydigan maktublar she'riyatda o'z ahamiyatini topganligini ko'rsatadi. Keyinchalik bu janrning nodir namunalari “Muborak maktublar”³⁸ nomi ostida birlashtirilib nashr etildi va qator tadqiqotlarga manbaa bo'lib kelmoqda.

Aynan shu davrlarda sharq allomalari maktubot janriga alohida e'tibor berdilar. Xususan “Munshaoti Jomiy”, “Munshaoti Navoiy”, “Maktuboti Temuriy”lar tarzida maktublarni yig'dilar ulardagi kirish va yakuniy qismlarini olib tashlab ularning mazmunini umumlashtirib, jamladilar. Natijada ular o'ziga xos poetika kasb eta boshladi. Ularni chuqur o'rganish natijasida XIV – XV asrlarda maktub janri o'z taraqqiyotini yuqori cho'qqisiga erishganligini takidlab o'tadi.³⁹ Bu janr ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida rivojlanishning yangi bosqichga ko'tarilish bilan birga maktubdan janr sifatida foydalanish boshlanadi. Navoiyning zamondoshlariga yozgan xatlari “Munshaot”ga jamlangan⁴⁰. Bu ikki namuna XIV – XV asrlar epistolyar adabiyoti uchun yetakchi manbaaligi adabiyotshunoslik terminlari lug'atida qayd etilgan.

Tarixan rim adabiyotida paydo bo'lgan adabiy tanqidiy fikrlarni maktub tarzida bitishni – yaratishni Seneka, Goratsiy asarlari buning yorqin namunasi sanalgan. XX asrga kelib maktublardan foydalanish bir qadar o'sdi. Hattoki adabiy tanqidiy munosabatlarni ifodalovchi alohida janr ko'rinishiga keldi. Yaratilgan badiiy asarlarga munosabat bildirish ko'rinishida adabiy tanqidni ham shakllanishiga xissa qo'shdi. Bunday maktublarning paydo bo'lish tashabbuskori gazetalar sanaladi. Kezi kelganda shuni ta'kidlash

³⁷ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 113-115betlar

³⁸ Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Адабиёт ва санъат. 1987

³⁹ O'rinboyev A. Jomiy maktublari. Toshkent, 1984

⁴⁰ H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova. “O'qtuvchi” Toshkent 1967

o‘rinli, bu gazeta o‘zbek tanqidchiligining, umuman, faollashuvi, xususan, yuqoridagi kabi jonli izlanishlarga doimo tashabbuskor bo‘lib kelmoqda. Bu maktublar qayta qurish davrida yozilgan, shuning uchun ularda zamon ruhini, fikni, haqiqatni ochiq-oydin, baralla aytish ruhi yaqqol ko‘rinib turadi. Bu maktublar 80-yillar tanqidchiligida jiddiy izlanishlar va o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘zbek tanqidi tarixida munaqqid chiqishlariga shoir yoki yozuvchining javob berishi, u bilan bahsga kirishuvi, boringki, o‘zini himoya qilishi kam uchraydigan hodisa. Bu holni ma‘lum darajada 20-yillardagi adabiy jarayonda ham kuzatish mumkin edi. Adabiy maktubda munaqqidning munaqqidga maktubi (ko‘proq javob tarzida) turi ham bor. Bu tur 20-yillarda ancha tarqalgan edi. Abdurauf Fitratning «Yopishmagan gajaklar»i bunga misoldir. Ammo bunday asarlarning janriy chegarasi hali aniqlangan emas, ularni ba’zida maqola, ba’zida maktub deb atash hamon davom etmoqda. Xarakteri, ruhi, yozilish sabablaridan kelib chiqib, adabiy-tanqidiy maktub sifatida qarash maqbuldir⁴¹.

O‘zbek adabiyotida yozuvchilarning muktublari hozirgacha deyarli o‘rganilmay kelayotir. Holbuki, S. Ayniy, Oybek, G. G ‘ulom , A. Qahhor, Said Ahmad, P. Qodirov. O. Yoqubov va boshqa ko‘plab ijodkorlar merosi adabiy maktublarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu janrni jonlantirishda Sh.Xolmirzayev faolligini ta’kidlash o‘rinli. Maktubning bu turi tanqiddan ko‘ra badiiy ijodga tegishli. Shu bois ularni alohida o‘rganish kerak. Bu maktublar ijodkorlarning yaxlit qiyofasini o‘rganish va yaratishda muhim o‘rin tutadi. Keyingi yiilarda o‘zbek adiblariga kitobxonlar yozgan xatlar ham, o‘ziga xos tarzdagi adabiy-madaniy boylik ekani ma‘lum bo‘lib bormoqda. Bunga shoir Shukrullo yozilgan, yuzlab xatlar asosida tuzilgan «G‘oyibona muhabbat»(2011) to‘lplami misol bo‘la oladi.

Bizning tadqiqot obyektimiz, aynan, noma janri emas, balki nomaning badiiy asar tarkibida uchraydigan maktublarga yondosh holatda o‘rganish. M.

⁴¹ Xudoyqulov E. Adabiyotshunoslikka kirish. 2006. 126-bet

Jalolovanning “O‘zbek adabiyotida nomachilik janri”⁴² monografiyasi, Azimova O‘giloyning “Noma janrining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni”⁴³ masalasi yoritilgan magistrlik dissertatsiyalarining tadqiqot obyekti aynan mana shu noma janrining o‘ziga xosliklari, nomaning fors adabiyotida, turkiy xalqlar adabiyotidagi ahamiyati. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan nomalarga ham e’tibor qaratilgan.

XVIII asrda maktub shaklida romanlar yozish Yevropada odat tusiga kirgan (S.Richardsonning «Pamela», 1740; J.JRussoning «Yuliya yoki Yangi Elioza», 1761 va boshqalar). XIX asrda Epistolyar adabiyot tarixiy hikoya, oilaviy xronika tarzida rivoj topdi (I.S. Turgenev, «Faust»; F.Dostoyevskiy, «Faqir kishilar»). XX asrda, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida maktub shaklidagi Epistolyar adabiyot muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiyotida epistolyar shakldan O.Yoqubov, O‘.Hoshimov, A.Ibrohimov kabi yozuvchilar unumli foydalanmoqdalar. Xususan, Abduqahhor Ibrohimovning «Uyqu kelmas kechalar» romani boshidan oxirigacha asosiy qahramon Faxri Kamolning sevgilisi Yoqutxonga yo‘llagan xatlaridan iborat⁴⁴.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, bob bo’yicha shunday xulosalarga kelishimiz mumkin. Maktub insonning ijtimoiy xayotida muhim o‘ringa ega. Chunki, u insonning qalbida yastanib yotgan qalb kechinmalarini yuzaga chiqarib beruvchi qalb oynasi hisoblanadi. Uning ahamiyati nafaqat kundalik turmsh tarzimizda balki, badiiy adabiyotda ham ifodalanadi. Badiiy adabiyot ijtimoiy hayotning in’kosi bo‘lganligi sababli ijtimoiy hayotning mahsuli bo‘lgan maktub badiiy adabiyotda ham o‘z xos o‘rin topdi.

Maktub, noma, xat atamalari adabiyotshunoslikda uchraydi, lekin ular bir-birida farqlanadi. Ayniqsa, maktub xat va nomadan farqli o‘laroq, badiiy

⁴² M. Jamolova. O‘zbek adabiyotida noma janri. Toshkent. 1992.

⁴³ O‘g‘iloy Azimova. “Noma janrining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi avtoreferati. Farg‘ona. 2017.

⁴⁴ D. Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent 2013. 368-bet

adabiyotda o'zining poetik xususiyati, estetik ta'sirining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Maktublar bizgacha bir nechta adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan va ularning tasnif qilish masalasida bir qancha fikrlar bildirilgan. Badiiy adabiyotda uchraydigan maktubalarning genezisi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularning ilk ko'rinishlari xalq og'zaki ijodi namunalarida ham uchraydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda maktublarning badiiy asar kompozitsiyasida uchrashiga ko'ra quydagi 2 guruhga ajratish mumkin.

1) matn ko'rinishida uchraydigan xatlar (bu ko'rinishda aniq maktub matni beriladi);

2) mazmun ko'rinishida uchraydigan xatlar deb aytish mumkin. (Maktub matni keltirilmaydi aksincha maktubning mazmuni asar voqealari rivojiga tasir ko'rsatib turadi).

Yozma adabiyotda uchraydigan maktublarning alohida, o'ziga xos badiiy-estetik xususiyati mavjud. Ular yozuvchining muayyan g'oyaviy badiiy niyatini ko'zlagan holatda asar kompozitsiyasiga maktubni jalb qilishida ko'rinadi. Demak maktublar asarda keyingi voqelikni yuzaga kelishi uchun kalit vazifasini bajarishi mumkin, tugun vazifasini bajarishi mumkin yoki xarakter ruhiy dunyosini ochib berishga xizmat qilishi mumkin.

Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan xalq dostonlari – “Alpomish”, “Ravshan”, “Kuntug'mish”, “Manas”, “Qirqqiz” kabi dostonlarda uchraydi.

O'zbek adabiyotida maktublar Abdulla Qodiriy, O'tkir Hoshimov, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Abduqahhor Ibrohimov, Xurshid Do'stmuhammad kabi ijodkorlarning ijodiy namunalarida uchraydi.

Jahon adabiyotida esa Gyote, Monteskey, Goldsmit, Doteyevskiy, Lev Tolstoy, Frans Kafka, Poulo Koelo, Stefan Sveyg, Chingiz Aytmatov kabilarning ijodida uchraydi.

III BOB BADIY ASARLARDAGI MAKTUBLAR POETIKASI.

3.1 Badiiy asar tarkibida uchraydigan maktublarning asar kompozitsiyasida tutgan o'rni

XX asr o'zbek adabiyotida eng yuksak pog'onalarni zabt etgan bu roman jamiki adabiyotshunoslar orasida qator baxslarga, yangi izlanishlarga sabab bo'lgan. "O'tkan kunlar" kompozitsiyasidagi maktublarning o'rni va badiiy ahamiyati jihatidan yondoshaylik. Har bir ijodkor o'z asari ruhiyatini, g'oyasini ochib berishda turli xil vositalardan foydalaniladi: tush, hayol, tabiat tasviri, ularning qatorida maktub ham alohida ahamiyatga ega. "O'tkan kunlar"da ham obrazlar ruhiyatidagi o'zgarishlarni ijtimoiy hayot va siyosiy tuzum o'zgarishlari bilan birgalikda o'zida mujassam etib, asarning badiiy qiymatini ma'naviy ta'sirini oshirishga yordam bergan detal – bu maktub sanaladi.

Tarkibida maktub bo'lgan badiiy asarlar haqida gap ketganda o'zbek adabiyotidagi eng birinchi roman, o'zbek xalqining milliy urf odatlarini an'analarini o'zida mujassam etgan asar "O'tkan kunlar"ni chetlab o'tolmaymiz. Bu asar mavzulari va g'oyalari jihatidan shunchalik mukammal asarligi uchun Abdulla Qodiriyning "o'z davrining adabiy dahosi" deb bimalol aytishimiz mumkin. Bu fikrimizning isboti sifatida asarda uchraydigan maktublarning mavzusini ko'rib o'taylik. Asrda uchragan ishqiy mavzudagi maktub ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Chunki unda badiiy-estetik saviyasi va uslubiy bo'yoqdor so'zlardan foydalanilganligidadir.

Asarda uchraydigan maktublarda turli xil mavzular yetakchilik qiladi. Biz o'z ishlarimizda badiiy asar tarkibida uchraydigan maktublarni 4 ta mazmuniy guruhga tasnifladik:

- 1) ishqiy maktublar;
- 2) oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar;
- 3) diplomatik maktublar;
- 4) ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maktublar;

Asarda ularning har biri o'ziga xos namoyon bo'ladi. Asar boshlaridayoq uchragan Yusufbek hojining Otabekka yo'llagan maktubi oilaviy munosabatlarni ifodalovchi va ijtimoiy siyosiy muhitdan xabar beruvchi birinchi maktubdir. Bu maktub asardagi birinchi ijtimoiy konfliktning yechimi sifatida – Otabek va Mirzakarim qutidorni tuhmatli o'limdan saqlab qoladi, maktubni O'tabboylar hokimga eltish vazifasini esa Kumush bajaradi. Kunlar o'tib, Musulmonqul, Yusufbek hoji va Azizbeklarning isyoni sababli Toshkent qamaliga qarshi Otabekdan foydalanish fikrini beruvchi ikkinchi bir maktub voqealar rivojidan o'rin oladi. Homid o'zini sezdirmaslik uchun Xudoyorxonga isyonkorning o'g'li Marg'ilonda, deya "chaqib" yuborgan maktubi orqali o'zini kamtar ko'rsatmoqchi va yashirmoqchi bo'ladi. Natijada, Musulmonqul O'tabboylar Otabekni xon saroyiga olib kelishini buyuradi va unga dushmanlarcha munosabatda bo'ladi.

Otabek taqdirini o'tgan gal o'limdan saqlab qolgan maktub endi uni, Homidning xonga yozgan ig'vogarona maktubi, yana bir bora o'limga mahkum etadi. Shunday bo'lsa-da, asarda ikkinchi yirik tub burilishga sabab bo'lgan – Otabekni ikkinchi marotaba o'limdan olib qolgan detal ham yana maktub bo'ladi. Ushbu maktub Normuhammad qushbegi tomonidan Yusufbek hoji yordami bilan Toshkentning olinganligi to'g'risidagi diplomatik maktub edi. Unda Yusufbek hojining ham kichik bir murojaati – Marg'ilon zindonida aybsiz aybdor yotgan o'g'lini ozod etish (o'lmagan bo'lsa) iltimosnomasi Normuhammad tomonidan Hasanali yordami bilan xon saroyiga yetkazilgan yana bir maktub Otabekni o'limdan saqlab qoldi. Bu maktub garchand Yusufbek hoji tomonidan yuborilmagan bo'lsa-da, Otabekka otasining ruhiy holatini ko'rsatdi, Toshkentga yo'l olishiga sabab bo'ldi. Buning natijasi o'laroq Otabek Toshkentda "ota-ona orzusi"ga duchor bo'ldi. Asarning birinchi bobidayoq uchragan uch maktub obrazlar psixologiyasidagi o'zgarishlarni gavdalantirish bilan birgalikda, asar voqealari rivojiga badiiy voqea kechayotgan makonlarni bog'lashga ham xizmat qiladi deyishimiz mumkin.

Asarning II bobida qo'yilgan muammo "ota-ona orzusi"ni amalga oshirish bo'lib, bu muammoning yechimini topa olmagan Otabekning ruhiyatidagi o'zgarishlarni, unga bo'lgan Mirzakarim qutidorning munosabatlarini tasvirlashda ham yozuvchi maktubga suyanadi. Bu maktub o'ziga xos noodatiy edi (boshqa asarlarda bunday holat uchramaydi). Hali uchrashmagan quda va qudachilarning maktubi – Yusufbek hojining Mirzakarim qutidorga yuborgan muammoli maktubidir.

Maktubning maqsadi: Otabekni Toshkentga qaytarish; uylantirish va Marg'ilondan qadamini tegib qo'yish edi. Ushbu maqsadni yuzaga keltirgan sabab esa har ikki oilaning "yolg'iz tuyoqligi" ko'rsatiladi. Unga ko'ra qudalarini Kumushdan ayirmagan holda o'zlariga yana bir kelin olish orqali murosaga kelish edi. Otasining bu maktubini Otabekka o'z nomusi, g'ururi va hamiyat oldida uni yana bir bor dor oldiga keltirish bilan tenglashtirsa bo'ladi. Lekin Qutidor Otabekni va qudalarini arosatga qo'ymaslik uchun kuyovini o'zi boshlab Toshkentga olib boradi, to'yga o'zi bosh-qosh bo'lib to'ydan keyin Marg'ilonga o'zi yolg'iz qaytadi. Bundan alamzada bo'langan Kumushga "kundosh – xotin zotining o'limi" so'zining isboti sifatida to'ydan keyingi marosimlarning ikkinchi qaynotasi xastaligi sababli ortga surilib Marg'ilonga kelolmagan Otabekka bir shapati sifatida yuborilgan badiiy saviyasi eng qimmatli bo'lgan maktubini yuborilishiga sabab bo'ladi.

«Vafosizga. Men o'zimning bu maktubimni ko'z yoshlarim bilan yozaman. Negaki hozirda manim yolg'iz ko'z yoshlarimgina emas, butun borlig'im siyohdir. Men endi og'izlardag'i «vafo» so'ziga ishonmayman. Chunki men o'zimning vafosiga ishong'anim bir yigitdan ulug' vafosizlik ko'rdim. Uyatimdan ko'zlarimni ocholmayman. Negaki yeru ko'klar, tog'u toshlar va dunyodagi barcha narsalar manim aldang'anim uchun kulib masxara qilg'andek qaraydirlar... Bu kunimdan, bu hasratimdan qutilish uchun o'zimga ajal chaqiraman. Lekin ajal ham men sho'rlikdan nafratlangandek, go'yo ul ham menga vafosizlik qiladir. Begim, garchi

achchig'lansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va'da, vafo, yaxshilikni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo'q emish. Bil'aks siz: hiylakor bir tulki, og'zi qon bir bo'ri, rahmsiz bir jallod, uyatsiz bir yigit! Sizni hiylakor dedim: esingizda bormi, sodda otamni, go'l onamni qandog'lar qilib aldadingiz? Yodingizda bormi, sham' yonida meni aldab aytkan so'zlaringiz, bergan va'dalaringiz, «manim orzum» deb qilg'an xitob-laringiz, to'kkan ko'z yoshlaringiz?.. Bas, bu hiylalar, bu makrlar sizdan boshqa kimda topilsin? Sizni og'zi qon bir bo'ri dedim: chunki sizda rahm yo'q. Siz o'zingizning zaharlik tishlaringiz bilan mazlumlar ko'ksini, bayovlar bag'rini chok etasiz; yangi ochilg'an gullarni, endi bosh tortqan lolalarni vaqtsiz so'ldirasiz, ochilib bitmay o'ldirasiz! Sizni uyatsiz dedim: ilgarigi vahshatingiz bilan o'zingizning haqqingiz bitkanligini bilaturib ham yana uyalmay-qizarmay vijdonsizlar amrini berasiz va uyatsizlig'ingizni yana bir qat ortdirasiz! Men sizning ba'zi bir da'volaringizga hayron qolaman: otam Toshkandda ekan chog'da bu gapni aytishka uyalg'an emishsiz... Go'yo buning ila nomuslik bo'lib ko'rinmakchisiz shekillik?! Onam ba'zi vaqtlarda: Yangi yor topqanda do'stlar, eskidan kechmoq kerak, Eskini o'lgan sanab, latta kafan bichmoq kerak baytini o'qub qo'yar, men bo'lsam ul vaqtlarda buning ma'nosiga tushunmas edim. Ammo... endi bu baytni kimga aytilganiga va uning ma'nolariga xo'b tushunmakdaman. Tashlandiqlikning so'ng o'tinchi qilib sizdan shuni so'rayman: uchunchi yor topqanda ikkinchi bechoraga ham shunday uyatsizlik qilinmasa edi. Bu tilagim uchun ajablanmangiz, chunki, «pichoqni o'zingga ur, og'rimasa o'zgaga sol», deydirilar. Sizga yangi yor, menga uyatsizlikning qurboni bo'lish muborak. Kumush emas, Tuproqbibi yozdim. 17-javzo, 1265-inchi yil Marg'ilon».

Ushu maktubdagi so'zlar va bayt Otabekka ta'sir etib uning yo'lga chiqishi-yu, u Marg'ilonga yetib kelguncha g'animlarning xiylasi ularni ikkiga ayirishi, sevimli yorlarni, xatto, sevimli ota-o'g'illarni ham ayrilishiga sabab bo'ladi. Bunga "Homid" - (qo'lansa gaplar va ishlar uchun yaratilgan) ning Otabek nomidan 13-javzo 1265 hijriy sanasida yozilgan soxta taloq xati sabab bo'ladi.

Natijada, Otabek shoshilib hijrondan yonib turgan bir paytda u talpinayotgan uydan unga nisbatan “makkor”, “insofsiz”, “yaxshilikni bilmagan haromzoda”, “hudo o‘lim bersin uyatsiz eringga” kabi malomat toshlari otilmoqda edi. Asarda Otabekning Marg‘ilonda bo‘lishi mumkin bo‘lgan g‘animlarga bepisand, bee’tibor bo‘lib qolganligini ko‘ramiz. Uning natijasi o‘laroq Otabek va Hasanalining xat tashuvchi kimligini surushtirmay hijron dardlari to‘kib solingan xatni Kumush qo‘liga emas yana uning ashaddiy raqibi Homid qo‘liga tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

«Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga! Kinoya va achchig‘lar bilan to‘liq bo‘lg‘an maktubingizni oldim. Xatni yozg‘an chog‘ingizda tamom bir o‘t ichida, g‘azab dengizida suzg‘anlig‘ingiz gavgdalanib ko‘z o‘ngimdan o‘tdilar. O‘tdilargina emas, hatto menga shunchaliq ta’sir etdilarkim, go‘yo malikasining g‘azabiga uchrag‘an qul qay darajada es-hushidan ayrilsa, qilar ishidan, o‘ylar o‘yidan yanglishsa, maning-da hozirgi holim buning yuz daraja yuqorisig‘a yetdi. To‘g‘risi zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim va tushunishka ham luzum ko‘rmadim, chunki g‘azab ustida aytilgan so‘zlar aqlli kishilarcha loyiqi muhokama va mutolaa bo‘lolmas, gulxandan so‘ng alanga hisobini hech bir vaqtda olinmas. Lekin maktubingizning bir o‘rniga nima ma’no berish uchun tamoman ojiz qoldim: «Ilgarigi so‘zingiz bilan o‘zingizning haqqingiz bitkanligini bilaturib ham yana uyalmay, qizarmay vijdotsizlar amrini berib qo‘yasiz-da, uyatsizlig‘ingizni yana bir qat oshirasiz...» va «Otam Toshkanda ekan kezda bu gapni aytishka uyalg‘an emishsiz», «go‘yo buning bilan nomuslik, uyatchan bir yigit bo‘lib ko‘rinmakchisiz shekillik?!» Bu so‘zlaringiz bilan nima demakchi bo‘lasiz, taningiz sog‘mi? Durust, man otangizga birga ketalmasligimni, charlarni uch-to‘rt kun kutib qolishimni bir necha vaqt aytalmay yurdim va nihoyat otangiz ketishka ruxsat so‘ray boshlag‘ach, otam orqaliq uzrimni aytirdim, bas, bunda qanday uyatsizlik bo‘lsin, gumonimcha isitmangiz qattig‘ ushlag‘an ko‘rinadir va bu telbalarcha maktubingizni isitma orasida yozg‘on o‘xshaysiz...» «Maktubni isitma orasida yozg‘aningizg‘a tamoman qanoat

qildim. Shuning uchun sizni ayblashka haqqim yo‘q, ham siz ma‘zursiz. Bu kinoya va zaharlik maktubni yozishg‘a sizni majbur etkan, meni hiylakor tulki, og‘zi qon bo‘ri, uyatsiz yigit... va tag‘in alla qancha martabalarga mindirilishlarimning bosh omili albatta otangizdan ham eshitkan bo‘lsangiz kerak, shu kungacha charlar balosi bilan tutqun bo‘lishim orzu-havas qayin otasining og‘rib yotish shumligidir. Nihoyat sizning achchig‘ xatingiz barakasida bu kun charlar xabari ham kelib qoldi. Siz maning bu xatimni o‘qub, gunohlarimni yarlaqab turg‘an kezlaringizda, albatta man Marg‘ilon yo‘lida bo‘lsam kerak. Onangizning o‘quyturg‘an bayti maning sha‘nimga tamoman teskari, chunki ota-ona orzusi hech bir vaqt yangi yorlik vazifasini o‘tay olmas va hamisha boshqalar-ning orzu-havasi bo‘lib qola berar. Siz o‘zingizni tuproq bilan tenglashdirmakchi bo‘lg‘ansiz, lekin man hozir Kumushka ham qanoatlanmay Oltinbibini deb atamoq fikriga tushdim... Borlig‘im muhabbatingiz alangasi bilan tutashqani holda zavjingiz Otabek. 26 javzo, 1265-nchi yil. Toshkand».

Kumushning mehrli hijroni va makkora rashki bilan yozilgan xatiga javob tariqasida yozilgan bu ishqiy maktub o‘z egasiga yana o‘zgacha nazarli, o‘zgacha fikrli bo‘lib yetib boradi va Oltinbibining og‘rigini yana bir karra oshirgan “26-javzo 1265-hijriy yil Toshkent”⁴⁵dan kelgan bir maktub bo‘lib qoladi.

«Matluqam Kumushbibiga. Manim birinchi xatim bilan sizning menga qilaturg‘an erkaliklaringizga bir chek qo‘yilg‘an kabi edi. Lekin bunga tushunmabsizmi va yo tushunishka tilamabsizmi, haytovur yana ham eski erkaliklaringizni tark etmabsiz. Xatingizni o‘qur va o‘zimni kulgidan to‘xtata olmas edim. Orzuga ayb yo‘q, deydirilar. Chekdan oshib qilg‘an hujumlaringiz eski qadrdonlig‘ingiz otig‘a kechiriladir. Endilikda sizga mendek vafosiz va hiylagar bo‘lmag‘an yangi er topilg‘ay edi, deb addoi Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li, 26 javzo, 1265-nchi yil, Toshkand».

⁴⁵ Abdulla Qodiriy, Tanlangan asarlar, Toshkent “Sharq”, 2014. 142-bet

Bu xat bir mehrsizgina soʻzlardan iborat 5-6 gaplik maktubga ikkinchi soxta xatga almashildi-yu, qiymatsizlandi.

“Qaroqchi har gal oʻz ehtiyotini qilar”, deganlaridek Homid bu safar xat mazmunini oʻzgartiribgina qolmay, Otabek yozuviga oʻxshatib yozdirtiradi va faqat oʻzi uchun foyda keltiradigan xat tashuvchi Jannat opani yoʻlga soladi. Bu voqealar yolgʻiz qizi taqdirida kechayotganligidan achchiqlangan Mirzakarim qutidorga yoʻliqqan, soʻrashilmay quvlangan Otabekka oʻz taʼsirini oʻtkazdi. “Boringiz eshigim yonida toʻxtamangiz” soʻzlari bilan siylab qarshilangan qutidordan oʻpkalangan Otabek Margʻilon shomida boshi oqqan tomonga yoʻl soladi. Har ishda bir hikmat boʻlgani kabi u musofir boʻlib tashrif buyurgan bu uy voqealar rivojida unga bogʻliq barcha muammolar yechimini ham taqdim etadi. Lekin unga qadar qancha hijronli alamli kunlarni “haydalish”, “ajralish” kuylarini eshitishga majbur etdi. Otabek har qancha oʻylansa ham oʻz aybini topa olmadi. Toshkent – Margʻilon orasida sarson-u sargardon boʻladi. Toki, “Xoʻja Maoz” qabristonida tunab, poklanib masalaning yechimiga toʻgʻri nazar bilan yondoshib, ish tuta olish darajasiga yetgungacha, usta Olim uyida usta Farpi bilan suhbatlashib, “Otabek”(oʻzining)ning xatini eshitib, Homidning soxta xati unga ayon boʻlgungacha qiynaladi, bu esa masala yechimiga yoʻl koʻrsatdi. Endi Otabek oʻtgan kunlarini zahar bilan bulgʻab kelgan bu mudhish dushmanga qarshi qay yoʻsinda javob qaytarishni oʻylaydi va dushmanlarini mardu-maydonda yengadi, soxta maktub sohiblarini hayotiga nuqta qoʻydi.

Asar syujetidagi keskin oʻzgarishlardan oʻzini oqlash uchun qaynotasi Mirzakarim qutidorga (qaynota va kuyov oʻrtasidagi maktublar boshqa asarlarda koʻzga tashlanmaydi) va Kumushga maktub yozdi. Boʻlib oʻtgan voqealardagi oʻz his-tuygʻularini va psixologik holatlarini maktubda ifodaladi. Eng muhimi, uni yetkazuvchi usta Olimga topshirgungacha boʻlgan vaqtda asar tarkibida uchragan maktublar Otabek va Kumush xarakterlaridan tip yaratish uchun ham asos boʻlganligini koʻrsatib oʻtish joiz. **Asarning** III boʻlimida uchraydigan diplomatik

maktublar, ham asar syujetida o'ziga xos o'rin topa oldi. Shuningdek, ularda uchraydigan diplomatik maktublarga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, ularda ishlatiladigan so'zlar badiiy uslubning eng yuqori namunalaridan ekanligini ko'ramiz. *“Tojdor musulmon, xoqon ibn xoqon shaxan shoxi navjuvon, toj sari xushbaxton huzuri humoyun oliylarig'a...”*, *“Siz Xo'qandi ulamoyi kiromlarining Musulmonqul xunxo'rligidan faryodga kelib va shariati mustafoni oraga vosita qilib yozgan xatlarini oldik ...”* tarzida asar tarkibida gavdalanib asar syujetida makonlarni bog'lovchi vosita vazifasini bajarib kelganligini ko'ramiz. *“O'tkan kunlar”*da va boshqa asarlarda uchraydigan diplomatik maktublar o'ziga siyosiy yozishmalarni qamrab oladi. Bunday siyosiy yozishmalar diplomatik munosabatlarga asos bo'ladi.

Asardagi oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublarning ham ajoyib namunalari uchraydi. Ayniqsa, otaning farzandga onaning farzandiga, farzandning onaga, urning zavjasiga yozgan maktublari hamda kamdan-kam asarlarda uchraydigan qudalarning bir – biriga yozgan maktublari ham uchraydi, bu esa yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida haqiqatdan ham boy asar ekanligini ko'rsatadi.

*“O'tkan kunlar”*da uchragan qudalar o'rtasidagi maktubni tahlilga tortaylik.

“Qudamiz Mirzakarim qutidorg'a va qudachamiz xonimg'a yetub ma'lum bo'lg'aykim, bizlar munda sog'-salomatdirmiz va ul jonibdagi siz hurmatlik va izzatliklarni parvardigori olamdin sihatlaringizni saloti xamsa oldida so'rab turmoqdamiz.” – **hol- ahvol bayoni**

“Va'da maxfiy qolmag'aykim (maktubning kirish qismidagi sir), kuyav o'g'lingiz xizmatlariga yuborilg'an edi. Inshoolloh, salomat yetkan bo'lsa kerak. Ammo siz hurmatlularga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dun-yoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyoqimiz va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. Muhtaram

siz burodarimizning shul yagona o'g'limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag'anlari bizning janoblaridin bo'lg'an minnatdorlig'imizni va yana o'g'limizg'a bo'lg'an marhamatlarini bir oz tugallay olmadilar. Ammo kaminalari bu xususdagi aybni sizning ustringizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo'lg'an «yolg'iz tuyuqliq» savdosi sizning ham boshingizda bordir.” – **fikr bayoni.**

“Nachukkim, Otabekning ko'p umri Marg'ilonda o'tib, bizlarni ham siz o'ylag'an og'irliqqa solmoqdadir. Birodari aziz, siz manim bu so'zlarimdin xafa bo'la ko'rmangiz, zeroki, faqiringiz bu so'zlarni bir yo'sin kelish vajhidin yozib o'tdimiz. Dunyo orzu-havas uyi derlar. Yuqorida bayon qiling'anidek va o'zlari bilganlaridek, ayniqsa qudachalarining dunyoga kelib kutkani shu yolg'iz o'g'ulning orzu-havasidir. Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo'qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkandda ham taalluqdor qilmoqchi bo'lib, bul ma'niga ba'zi harakatlarini qilib qo'ygan erdik. Ammo bizlarning bul ra'yimizga o'g'lingiz qarshi tushib harchand rad qilsa ham nihoyatida onasining so'zini yerda qoldirmasliq uchun qabul qilg'an erdi. Ammo bul to'g'risidag'i siz janoblarining ruxsatlaringiz ba'dida javob bermakchi bo'lib, xizmatlariga ketkan erdi. Siz hurmatlular bul ma'nini savob toparsizlarmi-yo'qmi, bu jihati yana marhamatlaringizga bog'liqdir.” – **maqsad**

“Bu maktubni yozishdan qasdimiz shulkim, Otabekning u ikkinchi taalluqqa aslo ra'yi bo'lmay va yana sizlarga aytmay bul tarafda bizlarni xijolat chekdirib qo'yarmi, deb o'yladiq. Burodari kiromi, siz dunyo ko'rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo'b mulohaza qilib ko'ringiz, bu to'g'ridag'i ra'yi o'g'lingizga qarag'anda ham faqirlaricha sizlarda bo'lg'ani vajhidin albatta ko'ndirishka sa'y va Ko'shish qilursiz, deb ishonamiz. Otabekning ikkinchi taalluqi to'g'risida kelin bolamizg'a bildirilmasa xo'b erdi.” – **xulosa**

“Bizlarning xursandchiliklarimiz yo‘lida Otabek bilan birga Toshkand tushib, o‘z qo‘llari bilan to‘yimizni o‘tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudachalari.” – yakuniy so‘z

“17-savr oyida 1265-inchi hijriyada yozildi”. – maktub bitilgan sana.

Asarda uchragan ushbu maktudagi so‘zlar o‘z davridagi so‘zlashuv uslubida bo‘lsa ham har qaysi davr uchun tushunarli bo‘la oladi. Ushbu maktubning badiiy-estetik xususiyati shundaki, maktub orqali o‘z davridagi quda-andalarning muomalalari, munosabati, ijtimoiy pozitsiyasi, vaziyat namoyon bo‘ladi. Maktub orqali ikki oiladagi ahvolni ham bor bo‘yicha ko‘rishimiz mumkin. Bu maktubni yozishga ularni majbur qilgan kuch ham oilaviy munosabatlar va ularning ham oiladagi ham ijtimoiy vaziyatdir. Ushbu tuzumning kamchiligi ko‘p xotinlik qizining boshiga tushmasligi uchun Kumush bibining ota onasi uni Toshkantga yuboradilar. Bu esa ushbu maktubga javob edi.

Asar kompozitsiyasida uchraydigan yana bir maktub turi bor. Ular voqealar rivojiga ta’sir qiladi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida tasavvur beradi. Bu diplomatik maktub sanalib asarda siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan qator maktublarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Bundan tashqari asarda soxta xatlar ham mavjud. Asarda uchraydigan maktublarning mavzusi va g‘oyasining ko‘pligi asarning badiiy ahamiyati yuqoriligini ko‘rsata oladi. Abdulla Qodiriy bu romanida nega bunchalar ko‘p maktublardan foydanadi degan savol yuzaga kelishi tabiiy. Chunki maktublar asarning hayotiyiligini, ichki kechinmalarning haqqoniyligini, inson ko‘nglidan kechadigan o‘ylarning tiniqligini, aniqligini o‘zida namoyon qila oladigan badiiy asardagi ajoyib bir kuch sifatida ko‘rinadi. Asar kompozitsiyasida esa turli vazifalarni tugun, yechim, detal, muammo kabi qator vazifalarni bajaradi.

III bo‘limda siyosiy yozishmalar bilan birgalikda ishqiy maktublar ham uchraydi. Bu maktublar orqali asar qahramonlari hayotida kechayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni va bu o‘zgarishlardagi qahramonlarning psixologik xolatlarini ichki kechinmalarini o‘quvchiga namoyon qiladi. Buni maktubda uchraydigan quyidagi so‘zlar orqali bilishimiz mumkin : *“Oy yuzli rafiqam, qunduz qoshli mashuqam Kumush xonimga”, “Muhabbatingiz bilan to‘liq bo‘lgan mudhish bir haqiqat ehtimolidan yaproq kabi titrar va o‘zining to‘lib-toshgan hasratlarning, faryodlarining ifodasidan adashar edi...”*, *“...O‘zimda kutilmagan bir kuch sezgan edim, ikki emas, ikki yuz dushmanga muqobila etishga o‘zimda qudrat ko‘rgan edim... men o‘zimga bag‘ishlangan kuch manbaini juda yaxshi anglardim, mendagi bu o‘zgarish manbai uy ichida uxlaguvchi bir malak edi... Siz edingiz!”*.⁴⁶

II bo‘limda uchragan yuqoridagi so‘zlarga javoban keyingi bo‘limda Kumush tomonidan yuborilgan maktubda quyidagi nozik iboralar keltiriladi: *“Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqida yig‘lagan Layli otidan – sizga boshimdagi sochlarimning tuklaricha bexad salom”*, *“...Men kabi baxtsiz, men kabi g‘ovg‘asi ko‘p sizni zir ketirib, jondan to‘ydirgan bo‘lsa, ajab emaski qocha boshlagansiz...”*, *“...o‘ch qaytib men ham ko‘chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko‘nglimda. Agar xudo yorlaqab eshigingizda o‘rinlashib olsam, u yog‘ini o‘zim bilar edim...”*.⁴⁷ Bu maktubni olgan Otabekning tashqi ruhiy holati, ichki kechinmalari shunday tasvirlanadiki o‘quvchi uni o‘qib xuddi o‘zini Otabekdek his qiladi. Umuman olganda, asar tarkibidagi har bir maktub qahramonlar va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni tasvirlaydi, bir makondan ikkinchi bir makonga ko‘chayotgan voqealar rivojida ikki makonni o‘zaro bog‘lovchi vosita sifatida qo‘llanilgan.

Bu bobda yuqoridagi maktublardan tashqari oilaviy munosabatlarni o‘zida mujassam etuvchi maktub ham bor. Bu Kumushning onasiga yozgan maktubi. Unda Kumush o‘zining Toshkentdagi hol ahvoloti haqida xabar beradi. Buvisining

⁴⁶ Abdulla Qodiriy, Tanlangan asarlar, Toshkent, “Sharq”, 2014, 212 bet

⁴⁷ Abdulla Qodiriy, Tanlangan asarlar, Toshkent, “Sharq”, 2014, 239 bet

vafotiga achinganini, og‘iroyoq bo‘lmasa edi yetib borishligini, oilasidagi ahvolni qaynonasining mehribonchiligi-yu, kundoshi bilan murosasizligini Otabekning ularga munosabatini, Marg‘ilonni sog‘inganini aytib maktubi oxirida “Ko‘rishga olmasak mendan rozi bo‘ling, dadam va boshqa yoru do‘stlar ham. Kumush yozdim. Toshkent, 1269-yil 1-qavs oyida.” deb yakunlaydi. Bu orqali Kumush o‘zining bo‘lg‘usi fojiali taqdirini oldindan sezganligi yoki yozuvchi uning fojiali taqdiriga kichik bir ishora berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarning xotima qismida keltirilgan quyidagi xat orqali Otabekning taqdiri ko‘rsatib o‘tilgan. Bu xat Yusufbek hojiga Avliyo otadagi Qanotshodan 1277-yilda yuborilganligi ma’lum etilgan. *“O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmota ustidagi o‘rus bilan to‘qnashmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi. Qahramonona urushib shahid bo‘ldi men o‘z qo‘lim bilan ikkisini dafn etdim.”⁴⁸* – degan xabarni keltirib Otabek taqdirini hal etadi. Asarni munosib tarzda yakunlaydi.

Demak, xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida uchraydigan ishqiy maktublar qahramonlarning ruhiy holatini namoyon etishga, ichki kechinmalarini yorqinroq tasvirlashga xizmat qilish bilan bir qatorda qahramonlarni portretini yanada boyitadi.

Otabekning so‘nggi qismati haqidagi xabar Yusufbek hojining tanishi tomonidan yozilgan maktubda xabar qilingan. To‘g‘ri, maktub bir vosita. Uni o‘zgartirish ham mumkin edi. Ammo maktub shu o‘rinda tarixiy fakt — ishontirish vositasi sifatida qaraladi. Buning ustiga, muallif Otabekning ruslarga qarshi kurashini yoqlash yo yoqlamasligini, shu orqali ruslarga munosabatini belgilashda Otabek qaysi ruslarga qarshi kurashadi degan savolga javob topishga to‘g‘ri keladi»⁴⁹. Otabek obrazining ichki rivoji chor askarlari bilan to‘qnashuvda fojiaga - «qahramonona urushib shahid» bo‘lishga olib keldi. Uning taqdirining bunday xotimalanishi avtorning xohishi, istagi asosida emas, balki o‘sha davr ijtimoiy

⁴⁸ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon. Toshkent.1994, 277-bet

⁴⁹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazaryasi. “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi”. 2004.110bet

hayotining rivojidan va qahramon iroda yo‘nalishi mantiqidan kelib chiqayotganligidadir. Buni to‘g‘ri tushunish uchun Otabek obrazidagi asosiy narsani — uning «g‘oyaviy maslagi, ideali, e‘tiqodi»ni — ijtimoiy pozitsiyasini to‘g‘ri tushunmoq lozim⁵⁰. Otabek rus idoralaridagi tartibni yoqlasa-da, qirg‘in urushlarning oqibatidan azoblansa-da, lekin u o‘z davrining bosh haqiqatini anglab yetmaganmidi? To‘g‘ri, u o‘z yurti hayoti, xo‘jaligi, siyosatida ilg‘or va odilona tartiblar bo‘lishini, xonlik va beklik lavozimlarida insofli hokimlar bo‘lishini orzu va tashviq qiladi. Oiladagi eskirgan illat va taomillardan voz kechishni, muhabbatda er va ayol bir-birining ta‘biga mos bo‘lishi kerakligini yoqlaydi. Shu yo‘lda ba‘zi harakatlarni qiladi, ayniqsa tuzum illatlari uning shaxsi bilan to‘qnash kelganda («Musulmonqul», «Dushanba kuni kechasi» boblari) mardlik ham ko‘rsatadi. U davring asosiy haqiqatini Rossiyaning bosqinchiligini anglaydi, lekin, oqibatini to‘liq bilmasdi. «Adolatsiz muhitning zarbali turtkilarini yeya berib esankiragan, o‘jar, qahri qattiq voqealikning shiddatli quyuniga duchor bo‘lgan Otabekning shaxsiy baxti uzil-kesil chilparchin bo‘ladi, umidsizlikka tushadi, uning «pokiza qalbi»ni ezgu tuyg‘ular bilan to‘ldirgan Kumushning vafotidan keyingi hayot esa yigit uchun ma‘nosiz tuyuladi va u rus qo‘shinlariga qarshi urushda ishtirok etib, halok bo‘ladi» (H. Yoqubov). Demak, Otabek obrazi A.Qodiriy tomonidan yetarli obyektivlashtirilgan. Uning taqdiri odilona va ishonarli xotimalanganki, har qanday kitobxon ham uning taqdiri boshqacha bo‘lishi mumkin edi degan xayolga bormaydi. Bu esa yozuvchining san‘atkorligiga, hayot haqiqatini to‘liq va to‘g‘ri tasvirlovchi realist ekanligiga isbotdir.⁵¹

Asarda uchraydigan oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar esa oilaviy muhit tasvirini yaratishda yozuvchiga muhim qurol bo‘lgan bo‘lsa, obrazlar munosabatlarining sof tasvirlanishiga xizmat qilgan. Asarlarda kamdan kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan maktub turlarini ham asarga o‘rinli olib

⁵⁰ Nosirov O‘. Ijodkor shaxsi, badiiy uslub, avtor obrazi. T.: «Fan», 1981, 149—151- betlar.

⁵¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazaryasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi. 2004. 110bet

kira olgan. Masalan, qudalar o'rtasidagi maktub, qaynota kuyovlar o'rtasidagi maktublar. Asrdagi barcha maktublar polifoniklikni ta'minlagan makonlar o'rtasida asosiy bog'lovchi vosita vazifasini ham bajaradi. Xususan, Yusufbek hoji uyi, Mirzakarim qutidor uyi, Toshkent bekligi saroyi, Qo'qon xoni saroyi, Marg'ilon bekligi saroyi kabi makonlar o'rtasida. Fikrimiz yakunida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi maktublar asarning buyukligini taminlashga xizmat qilish bilan bir qatorda, asar nomini, asar qahramonlari nomini barxayot yashashini, o'quvchiga har qaysi davrda bo'lmasin badiiy-estetik zavq bera olishini aytib o'tishni joiz topdik.

3.2 Maktublar kompozitsiyasi va ularning badiiy-estetik funksiyasi

Yozma adabiyotda uchraydigan maktublarning alohida, o'ziga xos badiiy-estetik xususiyati mavjud. Ular yozuvchining muayyan g'oyaviy badiiy niyatini ko'zlagan holatda asar kompozitsiyasiga maktubni jalb qilishida ko'rinadi. Demak maktublar asarda keyingi voqelikni yuzaga kelishi uchun kalit bo'lib kelishi, ba'zi o'rinlarda tugun vazifasini bajarishi yoki xarakter ruhiy dunyosini ochib berishga xizmat qilishi mumkin.

Ibrohim Rahimning "Chin muhabbat" romani o'z tadqiqini kutayotgan asarlar qatoriga kiradi. Adib romanda "urush, hayot va muhabbatni" birlashtira olgan. Ularni asar kompozitsiyasida bir biriga jipslashtira oladigan vosita sifatida maktublardan foydalangan. Asardagi maktub detali syujetni harakatlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, asar qahramonlari xarakteri va ruhiy dunyosini ochishda ham ahamiyatli detal vazifasini bajaradi. Asarning ayrim o'rinlarida davr mafkurasi ta'siri se'zilib turadi. Lekin bu o'rinlar asarning umumiy poetikasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Biz uchun tadqiqot manbasi bo'lgan maktublarga va qahramonlarning ichki ruhiy dunyosi tasviriga ta'sir ko'rsatmaydi. Xususan, asarda dadasining taziqidan, Bozorovning nazaridan charchagan Adolat Normatga xat yozadi

Kirish – *"Normat aka, xat kutib ko'zlarim nigoron bo'ldi. Ikki enlik maktubingizga intizorman. Vaqt topolmadingizmi, xat yozmadingiz, yoki xatingizni bu yerdagilar tutib olib yashirib qo'yishyaptimi, har holda xat yo'q."*⁵²

Holat bayoni – *Xayolim o'zimda emas, qulog'im eshikda, ko'zim yo'lda. Yonimda bo'lganingizda, dardimni o'zingizga aytardim, zor ko'nglimga tasalli berar edingiz. Hamma balo sizning bu yerda yo'qligingizda. O'zi yo'qning ko'zi yo'q deganlari rost ekan, Normat aka! Siz meni bu so'zlarimning naqadar ochiq va achchiq ekanidan koyimang.*

Maktub yuborilish sababi – *Mening boshim musibatda qotib qoldi. Sizni katta vadalar bilan kuzatgan kishilar hiyonat yo'liga o'tdilar. Selpodagi Bozorovni*

⁵² Иброҳим Раҳим. Чин муҳаббат. Тошкент – 1958. 124-bet

yaxshi bilasiz. O'sha surbet otamni qo'lga olgan. Otam meni unga sotmoqchi. Bozorovning kimligini bilar edim, ammo, otamning bu qadar pastkashligini bilmas ekanman... bu yerdan bosh olib ketgim kelyapdi, lekin qayoqqa borishimni bilmayman.

Ruhiyat tasviri – *Sizni o'ylagan chog'imda ko'zimga hech narsa ko'rinmaydi. Bu og'ir holatdan meni qutqaruvchi birgina siz. Ergash akam Uralda, Olimjon akam frontda...Urush hammani o'z ipiga o'rab qo'ydi. Maslahatgo'yim yo'q.*

So'ngi so'z – *Ammo siz shunga ishoninki stansiyadagi so'zim so'z. Sizga bo'lgan pok sevgimni asrashga o'zimda kuch topolaman. Kuting kutaman!*

Maktub muallifi – *Sizni sog'ingan Adolat!*⁵³

Bu xatda o'zbek qizlariga xos shartakilik, ahdga sodiqlik sezilib turadi. Ushbu matn ko'rinishidagi maktub bilan birga kelgan To'xta xolaning mazmun ko'rinishidagi maktubi, uni eshitib turgan xoladagi faxr tuyg'usini uyg'otib, o'g'lim qahramon bo'libdi deyishi, xatning yakuniga borib esa o'g'lining bedarak yo'qolganligi habarini eshitib ona ruhiy holatida bezovtalik paydo bo'ladi. Buning ta'sirida bo'lgan qahramonning ruhiy holati yozuvchi tomonidan "haqiqiy kartinadek" tasvirlanadi.

"Daraksiz degan so'zni eshitdi-yu onaning xushi boshidan uchdi. Adolat ham ko'zini bir nuqtadan uzolmay qoldi. Harflar uning ko'ziga daraxtdek yirik ko'rindi, keyin chumoliday o'rmalay boshladi uydan chiqib xatning oxirini eshitgan Holida ham barmog'ini tishlaganicha qotib qoldi. Keyin to'xta xolaga taskin bermog'chi bo'ldi:

-Hafa bo'lmang, opa ... topilib qolar. "Qidirypmiz" dedi-ku, topiladi. Sabr qiling umidsizlanmang.

⁵³ Иброҳим Раҳим. Чин муҳаббат. Тошкент – 1958. 124-bet

To'xta xola ayvon oldida o'tirib qoldi. U ustunga suyanib, kuyib yig'ladi. Adolat o'zi iztirob chekayotgan bo'lsa ham noumid shayton xolajon. O'zingizni tuting. Normat akam topiladi!.."⁵⁴

Aynan mana shu mazmun ko'rinishidagi xat Adolatni o'z hayotida hal qiluvchi qarorni qabul qilishga (hatto dadasi oq qilsa ham)undadi. Bu holatlar guliston voqealaridan chiqib qushdek uchib Normatning oldiga ketgisi keladi va voyonkamatga ariza berib frontga ketishigacha ham o'z tasirini ko'rsatdi. Keyinchalik esa Adolatni qahramon bo'lishiga sabab bo'ladi. Asardagi keyingi uchraydigan xatga oid epizod "To'xta xolani urushdan gapirib bergin? –Deganida. xat yozmaganligimning sababi uyaldim. Urushga kirmay nogiron bo'lganinga xafaman"⁵⁵ deydi. Olimjon bu o'rinda bir qarashda e'tib tortmaydigan oddiy holdek tuyiladi. Lekin maktub yozish frontdagilar uchun yoruq yuz edi, Olimjon yuzining shuvutligi, urush ko'rmay nogironga aylanganini oilasidagilarga ayon qilmasligi, qo'li yo'qligi uchun qilolmasligi orqali ham sezishimiz mumkin. Urush yillarida jangchilarning frontdagi ruhiy holatini, kayfiyatini va psixologiyasini ularga kelgan xatlarni olishda xatlardan ko'ngli yaxshi xabar kutib pochtaionga o'yinga tushib berib keyin olishi ham kuzatiladi. Shunday bo'lsada chin muhabbat qahramonlaridan biri Kryupenyaga urushga kelgandan beri xat kelmas u ham yozmasdi. Uning yurti nemislar qo'lida qolgan edi, oila a'zolaridan umidini uzgan edi. Lastochkani unga xat keltirganda Kryupenyan otamni nemislar o'ldirib yuborgan meni xaqoratlama deydi. Xat yuzasiga "Frontdagi o'glinga" deb yozilgan edi. Noma'lum otaning megribonligidan ta'sirlangan Krupenyan ko'zlari yoshga to'ladi. Quoldoshlari qistovi bilan xatni o'qishga kirishadi.

"Salom o'g'lim! – extimol sen jangohdan shu soatda kelgandirsan, extimol jangga borayotgandirsan, extimol okopda ota-onangni sog'inib o'tirgandirsan, mening shu arzimas sovg'amni qabul qil!.. nemisning yo'lini to's! Uni Moskvaga

⁵⁴ Иброҳим Раҳим. Чин муҳаббат. Тошкент – 1958. 126-bet

⁵⁵ Иброҳим Раҳим. Чин муҳаббат. Тошкент – 1958. 127-bet

o'tkazma!..Men 72 yoshdaman, pensionerman. Lekin 3 oy bo'ldi yana zavodga ishga qaytdim. Gitlarning tezroq yanchilishini istayman.

Otang Ivan Petrovich Ivanov, Moskva "Serp i Molot" zavodining masteri"⁵⁶.

Kurpenya tilidan "otam" degan qichqirig'ni eshitmaguncha har qanday o'quvchi biror bir farzandi urushga ketgan otalar tilidan yuborilgan, yoki otasining biror do'sti degan fikrda turadi. Maktubni o'qigandan keyingi ruhiy holatda esa o'quvchiga yuqadi. Uning dadasidan olgan maktubi ham frontdagilarga aytgan chaqirig'i jangchilarning, shuningdek, Kryupenyaning ham vatanparvarlik qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan adabiy tanqidchi, olim D.Quronov maktublar qtnashgan asarlar haqida fikr yuritarkan, shunday deydi: – "Badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi ekanligiga to'xtalish joiz. Ma'lumki, muloqot paytidagina til hodisasi nutq hodisasiga aylanadi. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozayapsiz. Aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz — tasavvuringizdagi suhbatdosh bilan «xayolan gaplashasiz» va ayni shu suhbat (muloqot jarayoni) qog'ozda muhrlanadi. Qog'ozda muhrlangan «suhbat-muloqot», maktub adaresat qo'liga yetib borgach, yana jonlanadi. Endi siz adresat tasavvuridagi suhbatdoshsiz: real suhbatdoshga aylangan adresat sizning gaplaringizni «eshitadi». Ma'lum bo'ladiki, maktub, umuman, *yozma nutq muddati kechiktirilgan muloqot, matn esa muloqotning amalga oshish vositasi* ekan⁵⁷. Shunga o'xshash, yozuvchi ham ijod onlarida tasavvuridagi o'quvchi bilan muloqotda bo'ladi: unga muayyan badiiy informatsiyani yetkazadi, o'zining o'y-hislari bilan o'rtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishontirishga intiladi... Ayni shu muloqot — ijodiy jarayon asar matnida muhrlanadi. Xuddi maktubga o'xshash, asarni o'qish jarayonida muloqot qaytadan jonlanadi, endi

⁵⁶ Иброҳим Раҳим. Чин муҳаббат. Тошкент – 1958. 188-бет

⁵⁷ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. "Fan" 2007. 83-бет

yozuvchi tasavvurdagi «suhbatdosh» mavqeida tursa, o`quvchi real suhbatdoshga aylanadi. Ko`ramizki, badiiy matn muddati kechiktirilgan badiiy muloqot, badiiy asar esa shu muloqotning amalga oshishini ta'minlovchi vosita ekan.”⁵⁸ – tarzida baholaydi

Asardagi Isroil Azimovga kelgan xatlar ham ahamiyatli, unga shogirdlaridan yozilgan habarlar – xatlar. Davr mafkurasini, shogirdlarini mehr-muhabbatini va uning jamiyatdagi o`rnini-pozitsiyasini belgilaydi. Boshqa xatlardan farqli ravishda jangchilarga chaqiriq mazmunidan barcha o`quvchilarning chaqirig`idir. Asarda Eralidan kelgan 3 ta xat Begimxon ruhiy dunyosini ochishga xizmat qiladi. Urush mavzusida yaratilgan asarlarda makonlar aro bog`liqlik gazetalar va pochtachilar olib kelgan xatlar orqali amalga oshiriladi. Maktublarning namunalarida ko`rinib turibdiki asarda va uning badiiy ahamiyatida maktub detali judda kata vazifani bajargan, tasviriy yaqinlikni, ishonarlilikni ta`minlaydi.

Asarda 2 ta pochtalion obrazi va 2 ta pochtachi vazifasini bajaruvchi obraz qatnashgan. Ular harakteridagi, vazifasidagi o`xshashlik xat keltirib o`yinga tushib berishni so`raydilar. 1-pochtachi – frontda xat tashib yurib chayka bo`yidagi 144-tepalik janglaridan birida xalok bo`lgani aytilsa, 2-pochtachidan “Guliston”ning xat tashuvchisi edi. Lekin bu pochtachidan ko`ra Ergash – pochtachi vazifasini bajaruvchi qahramon. Qishloq hayotida muhim xatlarni ularning egasiga yatkazdi. Frontda esa tepalikdagi jangchilardan birida xalok bo`lgan pochtachi o`rnida Vladimir Lastochkin – “Qaldirg`och”ni pochtachilik vazifasini bajarayotganini ko`rishimiz mumkin. Aynan yo`qolgan Jabborov Normatga sevgani va onasidan kelgan xatni shu Lastochkin topshiradi. Bu asarda uchraydigan barcha xatlarga xos bir xususiyat da`vatning borligidir. – “Frontda va Uraldagilarda vatan uchun, front ortidagilar tinchligi uchun dushmanga qarshi turish davatidir.” Qishloqdagilar esa front va front ortidagilarning yo`qligini bildirmay, ularni barcha

⁵⁸ Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 2006, 84-bet

ishlarini davom ettirishni o'zlariga burch sifatida qabul qiladilar. Bu orqali chin vatan muhabbatiga ega ekanliklarini isbotlaydilar. Asarning nomi ham asardagi g'oyalarni qamrab olgan. Bir qarashda "chin muhabbat" Normat va Adolatni bir-biriga bo'lgan muhabbatidek tuyuladi ularning muhabbati chinligi yaqqolroq namoyon bo'lishi uchun Erali va Begimxon muhabbati yonma-yon qo'yiladi va ikki yor ham bir-biriga sadoqatli bo'lsagina muhabbat chin bo'lishi ko'rsatiladi. Shunday bo'lsada bu yerda yana bir muhabbat bor. Bu asar qahramonlari qalbidagi vatanga bo'lgan, xalqqa bo'lgan, oilaga bo'lgan chin muhabbatdir. Bu muhabbat xar bir qahramonda bor. Hatto Begimxonda ham agar unda bo'lmaganida edi. Eralining urushdan kelishini kutib, hech kimdan uyalmay, u bilan yashayverardi. Tog'ri Begimxonning yoriga muhabbati chin bo'lmasada vatanga muhabbati chin ekan buni asar davomida isbotladi. Bu kabi qahramonlarning ruhiy-psixologik holatini ochib berish uchun asarda ishtirok etgan 30ga yaqin maktub – 10ga yaqini matn ko'rinishida, qolgani esa mazmun ko'rinishida uchraydigan har xil mavzudagi maktublari asarga haqiqiy vatanparvarlik, jangovorlik, mehr-oqibatlilik ruhlarini bera oladi. Bejizga asarni epistolyar asarlar qatoridagi ajoyib namuna sifatida keltirilmaganligini, undagi maktublarning badiiy-estetik vazifasi beqiyosligini ko'rsatadi. Asardagi maktublar turli makonlardagi syujet chizig'lari orasidagi masofani bog'lagan, shuningdek ularda olisdagi muxit koloriti sezilib turadi. Asar chin ma'noda maktub "yarim diydor" ekanligining isbotlay olgan. Asrdagi Normat, Adolat, Erali obrazlari tip darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Begimxon, Shakarxon, To'xta xola, Ergash, Vladimir Lastochkin, Isroil Azimov, Kryupenyan kabi obrazlar xarakter darajasiga ko'tarilgan. Asarda o'z davrining tipik vakillari, xotin-qizlari, onalari, ayollari, jangchilari fidoiylar sifatida tasvirlanadi, jonlanadi.

Ishda yirik epik janr namunalari bo'lgan asarlardagi maktublar poetikasi va vazifasi yuqoridagi "O'tkan kunlar", "Chin muhabbat" kabilarda ko'rinsa, o'rta epik janr namunasi bo'lgan "Cho'l havosi", "Somon yo'li" asarlari ham bu turdagi asarlarning nodir namunasi sanaladi.

Xulosa

Maktub insonning ijtimoiy hayotida muhim o‘ringa ega. Chunki, u insonning qalbida yastanib yotgan qalb kechinmalarini yuzaga chiqarib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Uning ahamiyati nafaqat kundalik turmush tarzimizda balki, badiiy adabiyotda ham ifodalanadi. Badiiy adabiyot ijtimoiy hayotning in’kosi bo‘lganligi sababli ijtimoiy hayotning mahsuli bo‘lgan maktub badiiy adabiyotda ham o‘z xos o‘rin topdi.

Maktublarning genezisi ularning tasniflari haqida olimlar o‘z fikr va mulohazalarini ifodalaganlar. Shunday bo‘lsada bu masala hozirgi kungacha to‘liq tizimli o‘rganilmagan. Maktublarning o‘rganilishi har bir xalqlar adabiyotida ularning adabiy manbalari shakllanishi ta’sirida rivojlandi. O‘zbek tanqidchiligi taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham bir-biridan yiroq bo‘lgan makonlarni bog‘lashga xizmat qiladigan detal sifatida “Alpomish”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonlarida ham uchraydi.

Umuman olganda, maktublar Markaziy Osiyo xalqlarining mayishiy, ma’naviy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, asosiy kommunikatsiya vositalaridan biri bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lum moddiy ehtiyojlar tufayli paydo bo‘lgan xabarni ifodalash shakllari ham maktubning shakllanishiga asos bo‘lgan deb aytish mumkin. Maktubda badiiylik va ma’lumot(informatsiya) birlashib bir butunlikni hosil qiladi. Maktubning adabiy-tanqidiy janr sifatida shakllanishi va rivojlanshi ilmiy hodisa sifatida ayricha ahamiyatga ega. Qadimgi Rim tarixida falsafa, ritorika fanlari rivojida ham maktublardan foydalanilgan. Ayrim fan arboblari o‘z shogirdlariga yuborgan maktublari orqali buni ko‘rishimiz mumkin.

Xat amaliy ehtiyoj natijasida paydo bo‘ldi, unga badiiy sayqal berilib— badiiylashib, ta’sirchanligi yuqori bo‘lgan so‘zlardan foydalanib esa maktub yaratildi. Xat va maktubning ahamiyati yuqori darajaga ko‘tarilib bir qancha soxada foydalanila boshlandi, xususan badiiy adabiyotda ham. Davrlar o‘tib

maktublar badiiy adabiyotdagi o'рни va ahamiyatining yuqorilashishi natijasida alohida bir janrga – nomalarga aylandi.

Maktublar bizgacha bir nechta adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan va ularning tasnif qilish masalasida bir qancha fikrlar bildirilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan xalq dostonlari – “Alpomish”, “Ravshan”, “Kuntug'mish”, “Manas”, “Qirg'iz” kabi dostonlarda uchraydi. Badiiy adabiyotda uchraydigan maktubalarning genezisi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularning ilk ko'rinishlari xalq og'zaki ijodi namunalari ham uchraydi.

Asar kompozitsiyasida uchraydigan maktublar tuzilishiga ko'ra quydagi shaklda uchraydi.

1) matn ko'rinishida uchraydigan xatlar (bu ko'rinishda aniq maktub matni beriladi);

2) mazmun ko'rinishida uchraydigan xatlar deb aytish mumkin. (Maktub matni keltirilmaydi aksincha maktubning mazmuni asar voqealari rivojiga ta'sir ko'rsatib turadi).

Asarlar tarkibida maktublarning ikki xil shaklda mazmun va shakli (matn) ko'rinishda uchrashi adabiyotning dastlab og'zaki shaklda yuzaga kelganligi bilan bevosita bog'liq, keyinchalik yozma adabiyot shakllanib habarlar yozma shakllanib habarlar yozma shaklda yuborilgan. Bugungi kunda yaratilgan asarlarda ham har ikki turi ham saqlangan.

Yozma adabiyotda uchraydigan maktublarning alohida, o'ziga xos badiiy-estetik xususiyati mavjud. Ular yozuvchining muayyan g'oyaviy badiiy niyatini ko'zlagan holatda asar kompozitsiyasiga maktubi jalb qilishida ko'rinadi. Demak, maktublar asarda tugun vazifasini bajarishi mumkin yoki xarakter ruhiy dunyosini ochib berishi mumkin.

Badiiy asarlar tarkibida uchraydigan maktublarni “asar ichidagi asarlar” deb aytishimiz mumkin. Maktublarda badiiylik muhim ko'rsatkich vazifasini bajaradi. Ichki kechinmalar va hayotiy voqelikda haqqoniylikni

o'zida namoyon qila oladi. Badiiy asar ichidan maktubni o'zini olib o'qiganimizda xuddi bir taqdir haqida asar o'qiyotgandek kishiga ta'sir ko'rsatadi. Maktubni o'qigan kishida uning yozilishidan maqsadi, mavzusi, va g'oyasini bila oladi. Vaholanki, o'quvchida maktubga nisbatan munosabatni yuzaga keltira oladi.

Badiiy asarlar kompozitsiyasida uchraydigan maktublarning mazmuniga qarab quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

1. Oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maktublar.
2. Diplomatik maktublar.
3. Ishqiy maktublar.
4. Ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maktublar.

Asarlarning tarkibidagi maktublarning shakli, hajmi, ifoda usuli, inson ruhiyatinni tasviri qaysi janrda yaratilganligiga ham bog'liq. Chunki kichik epik janr namunalari bo'lgan hikoyalarda uchraydigan maktublar hajmi jihatidan qisqaroq, mazmuni esa yengilroq tarzda ifodalanadi. Lekin asarda maktubning o'ziga xos o'rni sezilib turadi. O'rta epik janr namunalari sanalgan qissalarda uchraydigan maktublar va ularning mazmuni mavzu ko'lamiga kengroq, yirik epik janr namunalari bo'lgan romanlarda uchraydigan maktublar saviyasi salmog'i asar voqealariga ta'siri va ahamiyati jihatidan ancha kengroq. Romanlarda uchraydigan maktublarda inson ruhiyati, ichki dunyosi, g'oyalari va ularning ahamiyati asar voqeligiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'zbek adabiyotida maktublar Abdulla Qodiriy, O'tkir Hoshimov, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Abduqahhor Ibrohimov, Xurshid Do'stmuhammad kabi ijodkorlarning ijodiy namunalarida uchraydi.

Jahon adabiyotida esa Gyote, Monteskey, Goldsmit, Doteyevskiy, Lev Tolstoy, Frans Kafka, Poulo Koelo, Stefan Sveyg, Chingiz Aytmatov kabilarning ijodida uchraydi.

Maktub, noma, xat atamalari adabiyotshunoslikda uchraydi, lekin ular bir-birida farqlanadi. Ayniqsa maktub xat va nomadan farqli o'laroq, badiiy adabiyotda o'zining poetik xususiyati, estetik ta'sirining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Aqliy va ma'naviy salohiyat –yangi jamiyat poydevori. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: O'zbekiston. 1998.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. –T.: O'zbekiston. 1998.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
5. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятн ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан. “Халқ сўзи”, 2017 йил, 4 август.
6. A.O'rinboyev Jomiy maktublari. Toshkent.: 1984.
7. A.O'rinboyev , M.Hasanov. Navoiy zamondoshlari maktublarida. Toshkent.: 1990.
8. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. Toshkent.: “Sharq”. – 2014.
9. Abduqahhor Ibrohimov. Uyqu kelmas kechalar (roman). T.: Sharq nashriyot matbaa. 2001.
10. Alisher Navoiy. Munshaot. Tanlangan asarlar. 13-jild. Toshkent 1968
11. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent.: 2014.
12. Azimova O'giloyning magistrlik desertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona.: 2017.
13. Adabiyotshunoslik atamalari lug'ati.–Toshkent.: “Akademnashr”. 2010.
14. Alpomish. Toshkent. 1987.
15. B. Nazarov A. Rasulov va bosh. O'zbek adabiy tanqidchilik tarixi. Toshkent.: 2012
16. Besh sevgi qissasi Farhod Hidoyatov to'plagan. T.: O'zbekiston. - 2016.

17. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: - "Fan". - 2007
18. D. Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. (qayta nashr) – Toshkent.: "Akademnashr" – 2010
19. D. Quronov, B. Rahmonov. G'arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari
20. Emine Eroglu. Turk edebiyoti ozal mektubler bibliografiyasi yuksek lisan tezisi. Istanbul.: -2000.
21. F.M. Dostoevskiy. Kambag'allar. Toshkent.: "Davr press". –2018.
22. Frans Kafka. Jarayon, Otamga xat. Toshkent.: "Sharq". – 2015.
23. H. Homidiy, Sh. Abdullayeva, S. Ibrohimova. "O'qtuvchi" Toshkent.: - 1967.
24. I. G'ofurov. Dil erkinligi. T.: "Manaviyat". 1998.
25. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent.: -2006
26. Ibrohim Rahim, Chin muhabbat, Toshkent.: 1958.
27. "Jahon adabiyoti" jurnali . 2009. 11-son.
28. "Jahon adabiyoti" jurnali . 2009. 6-son
29. "Jahon adabiyoti" jurnali . 2009. 4-son
30. M. Jalolovning "O'zbek adabiyotida nomachilik an'analari" monografiya. Toshkent.: "Fan" 1992
31. Muborak maktublar. Toshkent. Adabiyot va san'at nashryoti. – 1987.
32. N. Rahmonov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent .: 2016
33. N. Shukurov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.: 1982.
34. Omer Chakir. Turk edebiyatinda mektub. ANKARA.: -2005.
35. Ozod vatan saodati. Adabiy tanqid. 5-jild. T.: "ADIB" 2013
36. Ravshan. Xalq og'zaki ijodi. Toshkent.: - 2019.
37. Sh. Ahmedova. Maktubot va adabiy tanqid. T.: "Fan". -2007.

38. Stefan Sveyg. Noma'lum ayol maktubi. Toshkent.: "Yangi asr avlodi". – 2018
39. T Boboyev .Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston. - 2002.
40. O'.Nosirov Ijodkor shaxsi, badiiy uslub, avtor obrazi. T.: «Fan», 1981
41. O'lmas Umarbekov. Sevgim sevgilim. Besh sevgi qissasi. Toshkent. 2016.
42. U Normatov .Yangi o'zbek adabiyoti. –T.: 2007 va boshqalar
43. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. T.: 2016.
44. Yo'ldosh Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlari.O'z milliy kutubxona. T.: 2009.
45. Zokir Rahimov. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Uslubiy ko'rsatma. Farg'ona.: 2017.
46. O'lmas Umarbekov. Qizimga maktublar. Ziyonet.uz
47. O'zbek adabiyoti va san'ati.2006. 4-son.
48. O'zbek adabiyoti va san'ati.2012. 3-son.
49. O'zbek adabiyoti va san'ati.2014. 2-son.
50. O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Toshkent.: "O'zbekiston". – 2018.
51. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. T.: "Fan". – 2004. 3-son.
52. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. T.: "Fan". – 2006. 2-son
53. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. T.: "Fan". – 2009. 4-son.
54. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. T.: "Fan". – 2014. 1-son.
55. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. T.: "Fan". – 1989. 2-son.
56. «Узбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти. ТОШКЕНТ.:2003

57. Chingiz Aytmatov. Somon yo'li qissasi. Toshkent.: "Sharq". – 2006.
58. Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar. Toshkent.: "Sharq". – 2018.
59. Иброҳим Раҳим. Чин муҳаббат. Тошкент.: – 1958.
60. Ҳ.Болтабоев М.Маҳмудов. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I жилд. Т.: "Mumtoz so'z" – 2013.

Internet saytlari

61. Wikipediya.org
62. Google.com
63. Ziyonet.uz
64. Kitobim.uz
65. Saviya.uz